

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA
MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR NOMIDAGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKUL`TETI
O`ZBEKISTON TARIXI KAFEDRASI**

Qo`lyozma huquqida

“402” guruhi talabasi

MAMADALIYEV JAVLONBEK HASANBOYEVICH

**FARG`ONA VODIYSI XUNARMANDCHILIGI TARIXIDAN
(SHAHRIXON PICHOQCHILIGI MISOLIDA)**

*5120300 – “Tarix” (mintaqalar va mamlakatlar bo'yicha) ta'lim
yo'nalishi bo'yicha bakalavr akademik darajasini olish uchun yozilgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISH

Ish rahbari:

katta o`qituvchi Abduraupov O

Andijon-2018 yil

MUNDARIJA

Kirish.....	- 3 - 6
I bob. Turkistonda milliy hunarmandchilikning taraqqiyoti.....	- 7 - 14
II bob. Chor Rossiyasi Turkistonni zabt etgandan so'ng sanoatning kirib kelishi va uning milliy hunarmandchilikka ta'siri.....	- 15 - 32
III bob. Shahrixonning tarixiy va me'moriy yodgorliklari	- 33 - 39
IV bob. Shahrixon hunarmandlar yurti - pichoqchilik tarixi.....	- 40 - 48
Xulosa.....	- 49 - 52
Foydalanilgan adabiyotlar.....	- 53 – 55
Ilovalar.....	- 56 -

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalq amaliy san'ati turfa, rang-barang va etnografik jihatdan o'ziga xosdir. O'zbeklarning boy madaniy merosi va xalq amaliy hunarmandchilik an'alarini chuqur tadqiq etishga keng imkoniyatlar mustaqillik davridan boshlandi desak mubolag'a bo'lmas.

O'zbekistonning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta'kidlaganidek: "Biz hamma vaqt keng aholi qatlamlarining ham mumtoz, ham zamonaviy milliy madaniyatning eng yaxshi namunalaridan bahra olishiga imkon berib kelgan madaniyat sarchashmalariga avaylab munosabatda bo'lishni o'rganib olishimiz lozim. O'zbekistonda musiqa, tasviriy, monumental va amaliy san'at sohalarida katta muvaffaqiyatlarga erishilganligi tasodifiy emas. Milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalarini keng targ'ib qilish va ommalashtirish yosh avlodni, hozirgi yoshlarimizni ma'naviy tarbiyalashning asosi bo'lmog'i kerak".¹

1991 yili O'zbekiston o'zining mustaqilligini e'lon qilishi muhim voqea bo'lib, an'anaviy badiiy hunarmandchilikning rivojida ham o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatdi. Davlatimiz mustaqil rivojlanishining ilk bosqichlaridagi iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramasdan, madaniyat va amaliy san'at sohasiga alohida e'tibor qaratdi. Boy tarixga ega millatning o'zini anglash, madaniy meros va an'anaviy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini kuchaytirdi.

Xalq amaliy san'atini katalogizatsiya, inventarizatsiya qilish – hozirda mavjud bo'lgan an'anaviy xalq hunarmandchilik markazlarini, ustalarni, buyumlarni, badiiy an'analarni etnologik jihatdan qayd qilish, ularni o'rganish masalasi, bugun nafaqat O'zbekiston, balki xalqaro hamjamiyat doirasida dolzarbligi sezilmoqda. Shuning uchun bugungi kunda an'anaviy hunarmandchilikni ilmiy tadqiq etish, uning tarixi, ayrim markaz va hududlar hunarmandchiligining badiiy va texnologik xususiyatlari, hamda ularni etnologik

¹ Каримов И. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида. Хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: 1997. – 150 б.

manba sifatida chuqur o'rganish, xalq ustalari va yo'qolib borayotgan hunarmandchilik an'analarini aniqlash va shu asosda uning betakror an'analarini tiklash va rivojlantirish jarayoni dolzarb vazifalardan biridir. Malakaviy bitiruv ishda shu xususda ya'ni o'zbeklarning an'anaviy xalq amaliy san'atining muhim etnologik manba ekanligini ko'rsatish va tahlil etish deya belgilab oldik. Zero o'zbek xalq amaliy san'ati, hunarmandchilik an'analarini tiklash, rivojlantirish borasida hal qilinishi lozim bo'lgan masalalarni o'rganish etnologiya sohasida nihoyatda muhim o'ringa ega hisoblanadi.

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarnitizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy me'rosi va tarixiy an'analarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqiyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017 yilning 17 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.¹

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Asosiy maqsad o'zbek xalq amaliy san'ati xususiyatlari va ularning etnografik manba sifatidagi o'ziga xos jihatlarni tadqiq etishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan bir qator vazifalar qo'yildi:

- o'zbek xalq amaliy san'ati namunalarini tavsiflash va ularni to'plangan ilmiy adabiyotlar asosida tahlil etish;
- an'anaviy amaliy san'atning etakchi turlarini tavsifiy tadqiq etish asosida etnologik xususiyatlarini aniqlash;
- an'anaviy xalq hunarmandchiligi turlaridan pichoqchilikning tasnifi orqali ularni etnologik tavsiflash hamda ta'riflash;

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va xunarmandlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida". // Xalq so'zi. 2017 yil 21 no'yabr № 234 (6928) soni.

- Pichoqchilik maktablari an'analarining etnografik xususiyatlari va pichoqchilik an'analarini saqlash, "Usta - shogird" maktablari faoliyatini qaytadan tiklash sohasidagi reja hamda muammolar bilan tanishish;

Tadqiqot ob'ekti sifatida XX asr oxiri XXI asr boshlariga xos bo'lgan amaliy san'at namunalaridan xunarmandchilikning turlaridan – pichoqchilikni Shaxrixon shahridagi taraqqiy etish jarayoni tadqiqot ob'ekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot predmeti – O'zbekistonda va Shaxrixon shahridagi pichoqchilikni hozirgi kungacha saqlanayotgan turlari va xalq amaliy san'ati namunalari, xususan pichoqchilik bilan bog'lik buyumlar, ularning badiiy xususiyatlari, texnologiya uslublari va bugungi kundagi maishiy hayotdagi o'rni, ularni saqlash, qayta tiklash, "Usta - shogird" maktablari faoliyatini kabi masalalar tadqiqot predmeti sifatida olingan.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqot metodologik asosini milliy mafkura, milliy g'oya nuqtai nazaridan an'anaviy qadriyatlarni saqlash, rivojlantirish, avloddan-avlodga etkazib berish kabi tamoyillardan kelib chiqqan holda, mavjud ilmiy-nazariy tamoyillar, amaliy san'at tarixi va nazariyasi bo'yicha etnologiya sohasida qo'lga kiritilgan ilmiy yondashuvlar tashkil etadi. Xususan, yurtimizda "Xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va xunarmandlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 17 no'yabrda chiqarilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni ¹, hamda B.Karmo'sheva, O.Suxareva, G.Chepelevetskaya, A.Pisarchik, A.Hakimov, K.Akilova, E.Gyul, Q.Jumaev, Sh.Abdullaeva kabi etnograf va san'atshunos olimlarning monografiya va qo'llanmalari, ilmiy maqolalari bitiruv ishi mavzusini yoritishda asosiy nazariy manba sifatida ahamiyatli bo'ldi.

Ilmiy yangiligi: O'zbekiston, Shaxrixon shahridagi pichoqchilikni xalq amaliy san'ati maktablarining o'ziga xos etnografik xususiyatlari hamda ushbu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni "Xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va xunarmandlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida". // Xalq so'zi. 2017 yil 21 no'yabr № 234 (6928) soni.

mintaqa pichoqchilik san'atining an'analarini saqlash va tiklash, muhim etnografik manba sifatida kabi muammolar etnologik nuqtai nazaridan o'rganildi.

Pichoqchilikda qo'llanilgan naqsh motivlari tarkibi va ularni yasash usullari imkon qadar mufassal ravishda o'rganilib, ijodiy va semantik xususiyatlari tahlil etildi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. Malakaviy bitiruv ishi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Malakaviy bitiruv ishining umumiy hajmi 50 bet, adabiyotlar ro'yxati bilan 52 betni tashkil etadi.

I – bob. Turkistonda milliy hunarmandchilikning taraqqiyoti.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqiligini qo'lga kiritganidan so'ng mamlakatimizda keng tus olgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri xususiy mulkchilik va tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan. Bugungi kunda o'tmishda bu borada katta tajribaga ega bo'lgan ajdodlarimizning bu boradagi faoliyatlari qiziqish o'yg'otishi tabiiy. Zero, mamlakatimiz hududidagi shaharlar juda qadimdan savdo va xunarmandchilik markazlari sifatida nafaqat ichki ehtiyojlar, balki qo'shni mamlakatlar bilan o'zaro iqtisodiy aloqalarda ham muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, Turkiston shaharlari Buyuk ipak yo'lida Sharq va G'arb o'rtasidagi aloqalarda muhim o'rin tutgan. XV asrga kelib Buyuk ipak yo'li G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo munosabatlarida vositachilik rolini yo'qotsada, Turkiston shaharlari mintaqa miqyosida, hamda qo'shni mamlakatlar bilan iqtisodiy munosabatlarda o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Xususan, XIX-XX asr boshlarida mamlakatimiz xududida sodir bo'lgan keskin siyosiy o'zgarishlar iqtisodga salbiy ta'sir qilsa-da, shaharlar o'z iqtisodiy mavqeini yo'qotmadi, aksincha, chuqur tarixiy ildizga ega bo'lgan boy tajriba tufayli mahalliy aholining ichki ehtiyojlarini ta'minlash bilan birga qo'shni mamlakatlar bilan ham savdo munosabatlari imkon qadar davom etdi.

Ko'rilayotgan davrda Turkiston shaharlarida xunarmandchilik sanoati o'z davriga yarasha ancha taraqqiy etgan edi. Metall eritish, turli metall asbob va buyumlar yasash hunarmandchilik sanoatining etakchi tarmoqlaridan hisoblangan.

Turkistonga temir bilan cho'yan xom ashyo sifatida Rossiyadan sotib olib kelinardi. Cho'yan eritadigan tarmoqlar, asosan, shahar chekkasidagi qishloqlar atrofida barpo etilar edi. Masalan, Buxorodagi cho'yan eritish korxonalari shahardan 10 chaqirim uzoqdagi Atkuchi qishlog'ida, bir qismi esa

G'alaosiyo qishlog'ida joylashgan edi. Umuman olganda, 1841-1843 yillarda Buxoro atrofida 6 ta cho'yan eritish ustaxonasi bo'lgan.¹

Katta ustaxonada 16 kishi, kichkina ustaxonalarda, asosan 2-3 kishi ishlar edi, ular ham ustanning oila a'zolaridan iborat bo'lar edi. Yana shogirdlar mavjud bo'lib, ular quyish ishini dam bosishdan o'rgana boshlar edilar. Agar cho'yan eritadigan qozon 2-3 ta bo'lsa, usta ishchi ham yollardi. Yollangan kishiga uch so'm oylik to'lanar edi. Bunday ustaxonalar ibtidoiy hunarmandchilik asosida qurilgan bo'lib, og'ir mehnatni talab qilardi. Hamma narsa qo'l kuchi bilan bajarilganligi sababli ish sur'ati juda sust bo'lardi. Masalan, 12 pud cho'yanni turli asboblarda qolipiga solish uchun 14 kun, 12 pud cho'yandan 4 ta qozon yasashga 14 kun ketar edi. Cho'yan eritadigan ustaxonalar yilda 8 oy ishlardi, qolgan vaqtda usta oila a'zolari bilan birga o'z qishloq xo'jaligida band bo'lar edi. Ustaxonadagi 8 oylik ish davrida 200 pudgacha cho'yan eritilib, bunga 270 pud ko'mir yoqilar edi.² Cho'yan eritish korxonalari, asosan omoch tishlari, qozon, qora chiroq, oftoba (obdasta) choy idish va shu kabilarni ishlab chiqarar edi.

O'lkada temirchilik xunari avloddan-avlodga o'tib kelardi. Har bir temirchi usta ishlab chiqaradigan mahsulotlarga qarab temirchilikni uch guruhga bo'lish mumkin: birinchi guruhga-eshik zanjiri va xalqalari, ot va eshak taqalari, kavush va etik nag'allari, har xil mixlar, arava g'ildiragi uchun temir xalqalar, otlar uchun yo'g'on uzangi, duradgorlar uchun temir randalar va shunga o'xshash buyumlar tayyorlovchi korxonalar kirar edi. Ikkinchi guruh temirchilar-toshtarosh ustalar, dehqonlar va binokorlar uchun turli asboblarda, jumladan, ketmon, o'roq, bolta, tesha va boshqa narsalar yasashar edi. Temirchilarning uchunchi guruhi, asosan, po'latdan turli pichoqlar, qaychi, ustara, qilich, xanjar kabi asboblarda yasovchi ustalardan tashkil topgan. Po'lat pichoq, xanjar va qilichlarga har xil qimmatli suyaklardan, ayniqsa

¹ Зиёев Х Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми –XXаср бошлари.) Т.: Шарқ, 2006.

² Ўша жойда.

tuyaning oyoq suyagidan, fil suyagi va turli shohlardan, xususan kiyik shoxlaridan chiroyli dastalar qilinar edi. Bu dastalar xilma-xil o'yma gullar bilan bezatilar edi.

O'zbek po'lat pichoqlari uzoq asrlar davomida butun Sharq va G'arbga tanilib kelgan. Bu pichoqlar Chust, O'ratepa, Shahrixon va Xisorda yasalib, zamonimizgacha saqlanib kelmoqda. Samarqand va boshqa shaharlarda yasalgan qilichlar Ispaniyaning Toledo shahrida ishlab chiqilgan qilichlarga ko'p jihatdan o'xshar edi. Birgina Samarqand shahrining o'zida harbiy qurollar, qilich tig'lari ishlab chiqaradigan 15 dan ortiq ustaxonalar bo'lgan. Hisor, Farg'ona, Xiva va boshqa joylarda ham shunday korxonalar bor edi. Temirchilar miltiq va to'plar ham yasaganlar.

Katta shaharlarda alohida misgarlik rastalari bo'lar edi. Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, Samarqand, Jizzax, Toshkent, Xo'jand, Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Chust va boshqa shaharlar, ayniqsa misgarlik va turli idishlarga gul kesish san'ati tufayli, shuhrat qozongan hunarmandlar bilan faxrlanar edi. Misgarlar o'rtasida ham mehnat taqsimoti bor edi. Har bir usta ma'lum idishnigina yasardi. Masalan, bitta usta chilimni qalaylasa va qumg'on yasasa, boshqa usta qozon va lagan yasalar edi.

Turkistondagi hunarlar orasida eng qadimiylaridan biri-zargarlikdir. Zargarlar, asosan oltin, kumush va qimmatbaho rangli toshlardan, xilma-xil shishalardan turli buyumlar tayyorlashardi. Masalan, xotin-qizlar uchun tumor, tillaqosh va bargaklar yasashardi. Yana ko'krakka taqish uchun tumor savat, zebigule, qo'ltiq tumor, bilaguzuk, xalqa, isirg'a singari qimmatbaho buyumlar yasalar edi. Zargarlik Turkistonning deyarli barcha shaharlarida taraqqiy etgan edi.

Turkistonda kulolchilik ham keng yoyilgan hunarlardan biri edi. Bu sohada tovoq, piyola, chinni, ko'za va boshqa idishlar ko'proq ishlab chiqilardi. Ko'k, sariq, qizil, qora, zangori, oq va boshqa ranglarga o'rik elimi, un, qum, temir kukinini aralashtirib, idishlar rang-barang qilib bo'yalar edi.

Qarshi, Samarqand, Toshkent, Xo'jand, Rishton va boshqa joylarda kulolchilik ancha taraqqiy etgan edi. Masalan, Rishtonda idishlarga gul solish san'ati, ayniqsa rivojlangan edi. Bu erda kulollar juda ko'p bo'lganligi sababli ular o'rtasida idishlarning xillari aniq bo'lingan. Har bir usta faqat muayyan buyumni yasardi. Juvazkashlik ham o'lkadagi hunarlar orasida muhim o'rinni egallagan. Juvozlarda asosan zig'ir moy va kunjut yog'i chiqarilardi. Qovun va tarvuz urug'lari aralashmasidan yog' olinardi. Yana ko'knor urug'idan, yong'oqdan yog' chiqarilardi. XIX asr o'rtalarida Toshkent shahrining o'zidagina 500 juvoz bor edi.¹ Butun Turkiston o'lkasida esa bir necha o'n ming juvozxona bo'lgan. Shuningdek, sovun va sham ishlab chiqarish keng rivojlangan edi.

Turkiston xalqlari hayotida to'quvchilik muhim ahamiyatga ega edi. Bu hunar egalari paxta, ipak va jundan turli narsalar to'qishgan. Birinchi navbatda ip yigirishdan avval paxtani chigitdan ajratish zarur bo'lar edi, bu ishni faqat xotin-qizlar chig'iriq bilan bajarar edilar. Ip charxda yigirilib, kalava qilinar edi. Shundan so'ng ipni to'kish do'konlariga tayyorlash pallasi boshlanib, ip bir qancha kishilar qo'lidan o'tar edi. To'quvchilik do'konlari, asosan shahar mahallalarida va qishloqlarda bo'lardi. Shuningdek, ayrim ustalar o'z uylarida ishlar edilar. Chunonchi, bo'z to'qish keng avj olgan edi. Shahrisabzda to'qilgan bo'zlar alohida o'rinni ishg'ol qilardi. Buxoro bo'zlarining ko'proq qismi ko'kimtir bo'lib, asosan ko'chmanchi aholi o'rtasida sotilar edi. Bo'zdan tashqari, turli rangda bo'yalgan iplardan olacha, qalami, bayroq olacha to'qilgan qalami, olacha va shunga o'xshashlarni to'qish ishlari Namangan va Andijon to'qimachilari o'rtasida kuchaya borgan, bu matolar turli bo'yoqlari va yaxshi sifati bilan ajralib turar edi. Olacha, qalami, bo'z, chit, doka kabilarning hammasi faqat charxlar bilan tayyorlangan iplardan to'qilardi.

¹ История Андижана в документах и материалах (1876-1917гг) Том второй. Составители: Шамсутдинов Р.Т., Хошимов С.А., Бозоров Қ. Ташкент, Sharq, 2012. С.230.

1841-1842 yillarda Buxoroga kelgan rus diplomatik missiyasining boshlig'i kon injeneri-mayor K. Butenev bu erda chit ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega bo'lganligini ta'kidlab o'tadi. Asosan, ikki xil, ya'ni «chiti sarigaz» va «chiti chatti» to'qilgan. Bu xil chitlar avval oq surup kabi tayyorlanib, so'ng unga har xil gul bosilgan. Buxoro chitlari qo'shni mamlakatlarga, jumladan, Rossiyaga ham chiqarilar edi. Ayniqsa, Ural, Orenburg tomonlarga yuborilgan sarigaz chiti u joylarda «baxti» nomi bilan mashhur bo'lgan. Hunarmandchilikda ipak mollar tayyorlashga ham katta e'tibor berilgan. Xo'jand, Andijon, Namangan va boshqa joylarda ipak kiyimliklar to'qish ishlari avj olgan. Bu sohada Marg'ilon shahri shuhrat qozongan edi. Marg'ilonda to'qilgan turli shoyi kiyimliklar, xususan atlaslar Turkistondagina emas, butun Sharqqa ham tanilgan edi.

Qog'oz ishlab chiqarish o'lkadagi hunarlarning eng qadimgilaridan hisoblangan. XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon, Buxoro va Samarqandda ishlab chiqarilgan qog'ozlar, ayniqsa ipakdan ishlangan qog'oz butun Sharqqa nom chiqargan edi. 1863 yilda Turkistonning ko'p shaharlarida bo'lgan vengr sharqshunosi A. Vamberi Samarqand va Buxoro qog'ozlari o'zining silliqligi va sifati jihatidan chet mamlakatlarda shuhrat topganligini qayd etadi. Qo'qon xonligiga qarashli Charq qishlog'idagi qog'oz ishxonasi, asosan suv kuchidan foydalanishga moslashtirilgan edi. Shuning uchun ham buni «Qog'oz objuvozi» deb atashardi. Bu ishxonada asosan eski latta va paxtalar objuvoz orqali tozalanib, turli qog'ozlar tayyorlanar edi. Bu haqda 1873 yil mart va noyabr oylarida Turkistonga tashrif buyurgan Rossiyadagi AQSh elchisi Yujen Skayler o'z hukumatiga yuborgan ma'lumotlarida alohida to'xtalib o'tgan.¹

Muqovasozlik hunari ham uzoq tarixga egadir. Samarqand, Buxoro, Urganch, Xiva, Andijon, Namangan, Toshkent, Xo'jand kabi shaharlar

¹ Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Т., «Шарк» 2000. Б.237.

muqovasozlikning asosiy markazlari bo'lgan. Muqova charm va qalin qog'ozdan qilingan.

Turkistonda bo'yoq ranglari qadimgi zamonlardan bo'yoq, asosan turli ma'dan va o'simliklardan tayyorlanib, ularni aralashtirish yo'li bilan hosil qilinardi. Masalan, Buxoroda bizgut degan qora bo'yoq va separak yoki isparak degan to'q sariq bo'yoq ikki xil o'simlik aralashmasidan tayyorlanardi. Turkiston erlarida bo'yoqli o'simlik ro'yan, asosan Farg'ona vodiysida ko'p bo'lib, yovvoyi holda o'sardi. Ip va ipaklar ro'yan bo'yoqlariga bo'yalar edi.

Turkistonga 1885 yilda tashrif buyurgan Genri Lansdelning qayd etishicha, maxalliy aholi konchilik bilan ham shug'ullanib, ko'pgina minerallarni aniqlagan va ulardan unumli foydalangan. Uzoq izlanishlar tufayli Chotqol, Yuqori Chirchiq, Talas, Ili va Zarafshon qumlaridan oltin topishga ham muvaffaq bo'lgan.

Xullas, maxalliy va xorijiy manbalarning ko'rsatishicha, XIX asrning 60-70 yillariga qadar Qo'qon, Xiva va Buxoro xonliklarida ishlab chiqarishning juda ko'p turlari keng rivojlangan bo'lib. Mahsulotlar faqatgina ichki ehtiyojlarni qondiribgina qolmay, mahalliy tadbirkorlar sa'y-harakati bilan qo'shni mamlakatlarga, u xonlikdan bu xonlikka etkazib berilgan.

XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshida mamlakat xududida sodir bo'lgan keskin siyosiy, ma'muriy va iqtisodiy o'zgarishlar, mustamlakachilik tuzumining o'rnatilishi shaharlar hayotiga ziddiyatli ta'sir ko'rsatdi. Siyosiy, iqtisodiy va savdo mustaqilligining barham topishi qo'shni mamlakatlar bilan aloqalarning jadal rivojlanishiga olib keldi, o'lkaga chetdan sanoat mahsulotlarining kirib kelishi mahalliy ishlab chiqarishning ayrim sohalarining sinishiga va tugashiga olib keldi. Ayni paytda o'lkaga rus sarmoyadorlari, iqtisodiy munosabatlarining yangi shakllari kirib kela boshladi. Bank - kredit tizimi, temir yo'llar, sanoat ob'ektlari, savdo-sanoat shirkatlari va firmalari, savdo birjalari tashkil etilib, kengaya bordi va ular o'lkada metropoliya manfaatlari uchun mahalliy xom ashyo resurslaridan keng foydalanishda,

tadbirkorlikni aynan shu maqsadlar yo'lida kengaytirishda katta rol o'ynadi. Ammo, mahalliy ishlab chiqarish va bozorlar ham o'z ahamiyatini saqlab qoldi.

Chor Rossiyasi Turkistonni mustamlakaga aylantirgach o'zining mustamlakachilik maqsadlariga xizmat qiluvchi dastlabki sanoat korxonlarini barpo eta boshladi. Bu korxonalar rus kapitalistlari uchun Turkiston xom ashyosini tayyorlashga xizmat qildirdi. Shu boisdan ham bu erda paxtani dastlabki qayta ishlash bilan bog'liq sanoat korxonalari tashkil etildi.

Birinchi paxta tozalash zavodi 1879 yilda Toshkentda savdogar Nazarov tomonidan ishga tushirildi. Ikkinchi shunday zavod 1885 yili Andijon uezdida savdogar Xo'jaev, uchinchi esa Toshkentning Ko'kcha dahasida savdogar Isabek Hakimbekov tomonidan qurildi. 1867-1900 yillar davomida turkistonda ishga tushirilgan 170 ta korxonaning 75 tasi Farg'ona viloyatining 5 ta shahrida joylashgan bo'lib, ularning barchasi paxta tozalash zavodlari edi. Bu zavodlarning ko'pchiligi aka-uka Kraft, Vadyaev, Mirobid Mirmuhammedov, Olimjon Muhammadjonov kabi sarmoyadorlarga qarashli bo'lgan.¹ Turkiston sanoatida paxta tozalash zavodlaridan so'ng yog' ishlab chiqaruvchi korxonalar paydo bo'ldi. Choy qadoqlash, aroq-vino tayyorlovchi korxonalar ham ishga tushirildi.

Rus kapitalistlari er osti boyliklarini qazib olib ketishga ham alohida e'tibor berishdi. Romanov va Semchevlar Qo'qon tumanida toshko'mir, D. Petrov va G. Aleksandrovlar esa Qamishboshi va Laqqon qishloqlarida 25 ta neft konlarini izlab topishdi va ularda to'rtasi mahsulot bera boshladi. Chunonchi, 1888 yilda Andijon uezdida 2000 chelakdan ortiq, 1899 yilda 8809 pud neft tayyorlangan.² Neftdan yana mum va xilka (qurilish jihozi) olinar edi. Yangi zavod va fabrikalar ochilishi bilan mustamlakachi idoralar soni ham

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. - Б. 238.

² Ҳамид Зиёев. Ўзбекистон мустанлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). Т.: Шарқ. 2006. - Б. 123.

ko'paydi. Birgina Qo'qonning o'zida 16 ta aktsioner va yirik savdo firmalari ochilgan edi.

XX asr boshida o'lkaga Rossiyadan fabrika mahsulotlarining kirib kelishi kengayib borishi bilan Turkiston shaharlardagi mato, sapol, teri va sovun tayyorlash kabi hunarlar kasodga uchraydi. Lekin, bu ko'proq mayda hunarmandlarga tegishli bo'lib, yirik hunarmandlar o'z ishlab chiqarishini saqlab qolish uchun ish qurollarini takomillashtiradilar.

Bu davrda Turkistonga bank-kredit tizimi, savdo birjalar, savdo-sanoat shirkatlari, transport kontoralari, zavod-fabrikalar. Aktsionerlik jamiyatlarining kirib kelishi iqtisodiy hayotni jonlantirib, bu sohadagi yangi shakldagi munosabatlarga asos soldi. Ular ta'sirida ishlab chiqarishning ayrim sohalarini mashinalashtirish, yiriklashtirish va tovar-pul munosabatlarini kengaytirish, mahalliy resurslar, xom ashyoni iste'molga kiritishni jadallashtirish jarayoni boshlandi. Ammo, bu yangiliklar samarasidan asosan, ularning tashabbuskori bo'lgan xorijiy sarmoyadorlar va metropoliya foydalanganligi hamda iqtisodiy mustaqillik yo'qligi sababli mazkur o'zgarishlar mahalliy aholi farovonligiga va iqtisodiy taraqqiyotiga emas, balki metropoliya ehtiyojlarini qondirish hamda xorijiy sarmoyadorlarni boyitishga xizmat qildi.

II – bob. Chor Rossiyasi Turkistonni zabt etgandan so'ng sanoatning kirib kelishi va uning milliy hunarmandchilikka ta'siri.

XIX asr oxirlarida o'lkada sanoat ishlab chiqarishi asosan axolining maishiy ehtiyojlariga xizmat ko'rsatuvchi mayda xunarmandchilikdan iborat edi. Sanoat ibtidoiy bosqichda edi.

Ko'chmanchi aholi orasida xunarmandchilik:kigiz tayyorlash. Uy jixozlari ishlab chiqarish, oila ehtiyoji uchun teri va mo'yna ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yilgan edi. Bu erda kigiz (namat) tayyorlash ancha rivoj topgan, chunki unga talab xamma vaqt katta bo'lgan. Umuman, Turkistonda bo'z, atlas, shoyi to'qish, do'ppido'zlik, temirchilik, zargarlik keng rivoj topgan. Qandolatchilik, shirmonpazlik, novvoylik ham taraqqiy etgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiyadan sanoat maxsulotlarining keltirilishi ortib borgan sari maxalliy hunarmandchilik ishlab chiqarishi inqirozga uchray boshladi.

O'lka zabt etilganidan so'ng maxalliy sanoatning rivojlanishi paxtani qayta ishlash bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Paxta tozalash zavodlarida ko'p miqdorda chigit chiqarishi yog' zavodlarini yuzaga keltirgan. Firmalar paxta yog'idan olinadigan daromadni ham qo'lgan kiritish maqsadida zavodlar qura boshladilar. Bundan oldingi vaqtlarda mahalliy aholi chigitdan yog'ni moyjuvozdan olgan. Bu juda oddiy va mashaqqatli mehnatni talab qiluvchi usul ot yoki tuya vositasida bajarilar edi. Moyjuvozda 14 soat mobaynida 3 pud chigitdan 20 qadog' yog' olinib, ketgan harajat kuniga 1,20 tiyinni tashkil etgan. Boshqacharoq aytganda, bir pud yog' tayyorlash uchun 2,40 tiyin sarflangan. Mahalliy usulda yog' ishlab chiqarish keng tarqalib bu ish bilan minglab kishilar band bo'lishgan.1898 yilda Andijon uezdida 204 moyjuvozda 17300 so'mlik yog' ishlab chiqarilgan. Ularda 4162 nafar kishi mehnat qilgan.

Mahalliy moyjuvozlar hamma vaqt birday ishlamagan samaradorligi bir qancha susaygan vaqtlar ham bo'lgan. Masalan, 1900 yilda viloyatda moyjuvozlardagi 3478 nafar ishlovchi 305211 so'mlik mahsulot ishlab

chiqargan. Mahalliy usul bilan chigitdan yog' olish keyingi yillarda ham davom etaverdi. Hatto mahsulot miqdori oshdi. Masalan, Andijon uezdida moyjuvozlari soni 1039 tani, ishlovchilar soni esa 1107 tani, mahsulot qiymati bo'lsa 138973 so'mni tashkil etgan. 1907 yilda Andijonda Solovevning 3 ta press va 16 ta plita bilan jihozlangan zavodi mahsulot chiqara boshladi. Zavodlarda faqat amerika paxta navining chigitlari ishlangan. Ular yil bo'yi 150 kun ishlab, chigitni ko'p qismini sarflagan. Boshqa malumotlarga ko'ra zavodlar 250 kun ishlagan¹. Bu holat paxta hosili mo'l bo'lib, chigit ko'p etishtirgandagina ro'y bergan. Vaqt o'tishi bilan zavod yog'ining narxi oshib ketdi. Uning mahsulotiga ayniqsa, Rossiyada talab kuchaydi. Natijada uning bozor narxi ko'tarildi. Agar 1901 yilda bir pud yog'ning narxi 8-12 tiyin turgan bo'lsa, 1903 yilda 18-24, 1904 yilda 23-22, 1906 yilda 25-40, 1908 yilda 50-70 va 1910 yilda 60-72 tiyinga oshdi. Chigitdan oziq-ovqatga ishlatadigan yog' bilan bir qatorda sovun, margarin va chiroqni yoqishga sarflanadigan kerosin olingan. Sheluxa qora mollar uchun to'yimli ozuqa hisoblangan, uning tolasidan qog'oz ham ishlatilgan. Bundan tashqari u o'tin o'rnida ham ishlatilgan. Chigit yog'i kunjut, danak, qovun urug'i, yong'oq, kungaboqar va boshqa hshunga o'xshash narsalar bilan qorishtirilgan holda shivobahsh yog' tayyorlangan. Manbalarda takidlanishicha, Farg'ona viloyatidagi yog' zavodlari paxtadan ajratilgan chigitning hammasini ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan. Hatto chigitni Toshkent va Samrqanddan keltirish boshlangan edi. O'lkada jumladan, Farg'ona viloyati zavodlarining tuzulishi Amerikanikiga o'xshash bo'lgan. Chunki zavodlar u erda keltirilgan jihozlar asosida qurilgan. Ammo viloyatdagi zavodlarda ishlab chiqqan yog'ning sifati Amerika yog'ini sifatiga qaraganda ancha past bo'lgan. 19132 yilda yog' ishlab chiqaruvchi zavodlar soni 18 taga etdi².

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 238.

² Зиёев Х. Ўзбекистон мустанлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми –XXаср бошлари.) Т.: Шарқ, 2006. –Б.243.

XX asr boshlarida yog' ishlab chiqarish zavodlarida o'rta hisobda 155 nafar kishi ishlagan bo'lib, ulardan 104 tasi qora ishlar bilan band bo'lgan o'zbeklar, 37 nafari rus, 4 nafari eronlik va 14 nafari boshqa millat vakillari edi. Yog'ni katta qismi Farg'ona viloyati hissasiga to'g'ri keladi. U Rossiyadan tashqari boshqa hududlarga ham chiqarilib turilgan. Paxta yog'i asosan boshqa firmalar tomonidan olib ketilgan bo'lsada lekin mahalliy millat vakillari bo'lgan ayrim zavod egalari ham yog'ni bevosita Rossiyaga jo'natgan vaqtlar ham bo'lgan. Yog' zavodidan katta miqdorda kunjara ham chiqarilgan. U mahalliy ehtiyoj uchun sarflanishi bilan bir qatorda Rossiyaga ham jo'natilgan. Masalan, 1912 yilda Turkiston o'lkasidan jo'natilgan 2593381 pud kunjaraning yarmidan ko'p qismi Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan edi. Ammo kunjara savdosi ham bir maromda bo'lmagan. Uning miqdori 2 million ga etmagan paytlar ham bo'lgan. Paxtani chiqindisi bo'lgan linter ham etibordan chetda qolmay, ko'proq Volga bo'ylari va Lodzga olib ketilgan. Shuningdek, yog' zavodlaridan sheluxa va kir sovun kabi mahsulotlar ham Rossiya bozorlarida sotilgan. 1906 yilning oxirlarida Andijon shahrida ham yog' zavodi qurulishi boshlandi va oradan bir yil o'tgach ishga tushib yuborildi. Mazkur yog' zavodining Andijonda bunyod etilishi XX asr boshida shahar qiyofasida alohida o'rin tutadi. Sharqning qoq o'rtasida qurilgan korxona tarixi ming-minglab andijonlik insonlar hayoti tarixi hamdir. Goh suronli, goh istirobli va quvonchli damlar yaqin yuz yillik tarixning bir bo'lagiga aylangan"¹.

“Zakaspiy-Samarqand-Andijon temir yo'li foydalanishga topshirilgandan so'ng Orenburg-Toshkent tarmog'i qurulishi boshlandi. Biroz vaqt o'tgach, ikki tarmoq bir-biriga tutashtirildi. Ana shundan so'ng Markaziy Osiyoni temir yo'l bilan zabt etish nihoyasiga etkazildi. Yirik transport yo'llarining barpo etilishi Rossiya savdo-sanoat doiralari hamda ular orqali evropalik ishbilarmonlarning Turkiston o'lkasiga bo'lgan qiziqishlarini,

¹ Ўша жойда. - Б. 243.

intilishlarini behad oshirib yubordi. Turkiston o'lkasining yirik shaharlarida banklar tarmog'i kengaydi.

Moskvalik yirik savdogar va fabrikant Morozovning kuyovi bo'lmish Kanstantin Makarovich Solovev ham ana shu maqsatda Turkistonga qadam qo'ydi. U Farg'ona vodiysi shaharlari va qishloqlarini aylandi. O'zi uchun qiziqarli ma'lumotlar yig'di. U bildiki, o'z sarmoyalarini harakatga keltirishda yog'-moy sanoati imkoniyatlari katta. Andijon, Namangan, Chust va Haqqulobodda yog' zavodlari qurish rajalarini ishlab chiqa boshladi. Bu borada unga qaynotasi moliyaviy yordam berdi. Ayni vaqtda Toshkent, Qo'qon, Andijon banklari bilan hamkorlikka kirishdi. Asr boshlarida "turkestarskoe tovgovo-promo'shlennoe tovarishestvo" uyushmasiga a'zo bo'lib kirdi. Shundan so'ng u "K.M.SOLOV'EV i K0" kompaniyasiga asos soldi¹.

Andijonda o'z kompaniyasini shakllantirish jarayonida oxiriga etkazgan K.M.Solovev yog' zavodi qurulishi uchun joy izlay boshladi. Malumki, Andijonga etib kelgan temir yo'l tarmog'i qadimiy shaharlarning janubiy chegarasidan o'tgan. Shahar bilan Hakan qishlog'i oralig'ida Yalong'ochqo'rg'on deb yuritiladigan va hozirda ham ana shu nom bilan tilga olinadigan yirik mavze bo'lgan. Shahar tarixini bilimdoni, professor S.Jalilovning aytishicha, bu mavzening Andijonda o'z o'rnini bo'lgan. Temir yo'l tarmog'ini janubiy qismida yuzaga kelayotgan yangi shahar oradan ko'p o'tmay Yalong'ochqo'rg'on mavzei bilan qo'shilib ketgan.

K.M.Solovev bo'lajak korxonasini aynan shu Yalong'ochqo'rg'on mavzei markazidagi mahalla chekkasida qurishni lozim ko'rgan. Sababi, shu mahalla temir yo'l tarmog'iga tutashgan edi. Mahalla atrofidagi bo'sh maydon esa "Kavkaz-Merkuriy" transport firmasiga qarshli bo'lib savdoga qo'yilgan edi. Ancha vaqt davom etgan muzokaralardan so'ng K.M.Solovev "Kavkaz-

¹ Зиёев Х Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми –XXаср бошлари.) Т.: Шарқ, 2006. - Б.244

Merkuriy” transport firmasidano’sha bo’sh joydagi 750 kvadrat metr maydonni 7500 so’mga sotib oldi. Qurulish boshlangandan so’ng esa mahalladagi 30 ta honadondagi aholi uy joyini ham sotib olinadi. Uy-joyi sotib olingan mahalliy aholi esa shaharning boshqa joyiga ko’chirildi.

1906 yilning oxirida yog’ zavodi qurulishi boshlandi. Korxona uchun zarur bo’lgan jihozlar Evropa, Amerika va Rossiyadan keltirildi. Oradan bir yil o’tgach, korxona uchun zarur binolar qurildi. Bu binolarga 4 ta gidravlik press hamda 250 ot kuchiga ega bug’ mashinasi o’rnatildi. 1907 yili 16 noyabrdan korxona sinovdan o’tkazildi. 6 dekabrda muntazam ishlab boshladi. Ana shu vaqtda zavodning kunlik ish unumi 50 tonna chigitni qayta ishlash bo’lib, bundan 8-8,5 tonna qora yog’ olinardi¹.

Korxonada 150 dan ziyod ishchi mehnat qilar, ularning ko’pchiligi evro’palik va eronliklardan iborat edi. Mahalliy aholi vakillariga esa qora ishchilar qo’yilgandi. Ish haqi to’lashda ham ana shunday tengsizliklar mavjud edi.

Atrofdagi paxta tozalash zavodlarida ko’plab miqdorda ishlab chiqarilayotgan chigit miqdori korxonaning bir maromda ishlashini taminladi.

Yog’ zavodlar sonining ortib borishi va mahsulotning ko’payishi o’z-o’zidan raqobat maydonini yaratgan bo’lishi kerak. K.M.Solovev ham bu maydonda o’z o’rnini yo’qotmaslik harakatiga tushib qolgan.yog’ va sovun ishlab chiqarish tehnalogiyasini yanada takomillashtirish maqsadlarini ko’zlab u 1910 yili Amerika safariga jo’nadi. K.M.Solovev bir muddat Amerikada bo’lib yog’ zavodlari faoliyati bilan yaqindan tanishdi. Mazkur korxonalar uchun jihozlar ishlab chiqaruvchi kompaniya va firmalarda bo’ldi. Ana shundan so’ng mahsulot miqdorini ko’paytirishga hamda sifatini oshirishga hizmat qiladigan jihozlarni harid qildi. Jihozlarni Andijonga olib kelish chog’ida o’zi bilan birga Matta ismli mutahasisni ham bu erga joyladi. Eski

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 238.

asbob-uskunalar o'rnini ana shunday jihozlar egalladi. 400 ot kuchiga ega bo'lgan dizel-elektr stansiyasi ishga tushirildi. Natijada korxona ish maromi o'zgardi. Hujjatlarni shohidlik berishicha, 1912 yili korxonada 9400 tonna paxta yog'i hamda 700 tonna sovun ishlab chiqarildi.

Afsuski, K.M.Solovevning o'z korxonasini yanada rivojlantirish borasidagi orzular sodir bo'lgan yong'in tufayli sarobga aylandi. 1913 yil 27 fevralda elektr simidan uchqun chiqib yong'in boshlandi. Yong'in kuchayib butun korxonani qurshab oldi. Sug'urta idoralari tomonidan berilgan madad esa korxonani yana qaytadan tiklashga etmadi. Namangan va Chustda kichikroq yog' zavodlarini ishga tushurgan, Haqqulobodda esa yana yangisini qurayotgan K.M.Solovev Andijondagi yirik zavodni yurgizib yuborishga kuchi etmasligini angladi. O'z imkoniyatlarini hisob-kitob qilgan sarmoyador vayron bo'lgan korxonasini Andijonda ish olib borayotgan "Moskva savdo va sanoat", "V.Alekseev", "Katta yaraslav manufakturasini", Aka-uka Shlyussberglar hamda "O'rta Osiyo va Eron" savdo-sotiq kompaniyasi va firmalarga besh yil muddatga berib yuboradi. Ungacha "paxtaoyl" tamg'asi bilan mahsulot chiqarayotgan korxona "beshbosh" deb nomlandi.

Arxiv materiallarini dalolat berishicha K.M.Solovev korxonasi elektrlashtirilib, girdavlik presslar soni 12 taga etkazilib 1912 yilda eng yuqori natijaga erishgan edi. Yong'indan so'ng 5 nafar mulkdor korxonani yana qaytadan ishga tushurish borasida jo'p sarmoyalar solishga majbur bo'ldilar. Qariyb bir yil deganda korxonalar ana qaytadan tiklandi. Bu vaqtda malakali ishchilarning bir qismi uzoq ishsizlikdan so'ng boshqa korxonaardan panoh topishdi. Atrofda yog' zavodlari tarmog'ining kengayishi esa chigit masalasidan qiyinchiliklarni keltirib chiqara bioshldi. 1916-1918 yillarda Turkistonda 409 ming 500 tonna chigit ishlab chiqarilgan edi. Yog' zavodlari esa 65520 tonna yog', 6550 tonna sovun, 16390 tonna kunjara mahsulotlari tayyorlandi. O'sha vatqda Turkiston o'lkasida 40 ta yog' zavod mavjudligi,

ularda 150 ta girdavlik presslar o'rnatilganligi hisobga olinsa manzara yanada oydinlashadi¹.

1914 yildan boshlab birinchi jahon urushi, bu urushga Rossiyaning ham jalb etilishi, mahalliy o'lkada front orqasiga madikor olishning boshlanishi, o'sha davr tuzumiga qarshi har xil partiya va uyushmalarning faoliyat ishlab chiqarish munosabatlariga o'z tasirini ko'rsatdi. Ana shunday sharoitda Andijonda eng yirik sanoat korxonasi g'oyalar kurashi maydoniga ham aylana boshladi. Ishchilar ish haqidan norozi ekanligini goh yashirin, goh oshkora ayon eta boshladilar. Rossiyadan Turkistonga eksport qilingan satsial demokratlar ishchilar o'rtasida siyosiy qarashlarni o'zgartirish yo'lini targ'ib qildi. Mahalliy ziyolilar va boylar ham Turkiston o'lkasini manfaatlaridan kelib chiqqan holda turli uyushma va jamiyatlar tashkil etishib yoshlarni o'z atroflariga birlashtirish harakatini boshlab yuborishdi.

Lo'nda qilib qytganda "Beshbosh" zavodi turli siyosiy qarashlarning manfaatlari to'qnashgan maydonga aylandi. Chor Rossiyasida 1917 yil fevral hamda oktyabr to'ntarilishlari sodir bo'lgach, "Beshbosh" korxonasi olov ichida qoldi. Birinchi jahon urushi tabiiy ravishda fuqorolar urushiga aylanib ketdi. Korxona shaharning markazida, temir yo'l vokzali yonida joylashganligi sabab goh u kuchlar, goh bu kuchlar qo'lga o'taverdi. Bunday vaziyatda zavodga hom ashyo etkazib berish ham qisqardi. Bokudan keladigan yoqilg'i mahsulotlari kelmay qo'ydi. Yog' zavodlari Turkiston o'lkasida o'rnatilgan "sovet hokimiyati" dekreti bilan 1918 yil mart oyida davlat monopoliyasiga musodara qilindi. Oxir oqibat korxona 1919 yili faoliyatini to'htatdi.

Yog' sanoati O'rta Osiyoning iqtisodiy taraqqiyotida paxtadan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Hozirgi yog' zavodini hududi 1906 yilgacha ekinzor bo'lib jo'xori, makkajo'xori va poliz-savzovot ekinlari ekilaverdi. Men o'sha vaqtda deb

¹ Зиёев Х Ўзбекистон мустанлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми –XXаср бошлари.) Т.: Шарқ, 2006. –Б.245

yozadi: N.P.Nikiforov “men o’sh vaqtda Andijon parovoz deposida ishlar edim. 1906 yilning oxirida kattam mulkdor Solovev tomonidan zavod qurulishi boshlandi. Men ham shu qurulishga kelib ishlay boshladim. 1907 yil yilning noyabr oyida zavod qurulishi tugallanib, foydalanishga topshirildi.

Dastlabki vaqtda zavod ishchilari asosan ruslar va forslardan iborat edi. Mahalliy xalq vakillari juda oz edi. Biz ikki smenda, 12 soatdan ishlar edik. Har bir ishlovchida hisob-kitob daftarchasi bo’lib, unda korxona egalari ishchilariga har oyda asosiy ish haqidan tashqari kvartal haqi, 5 qadog’ yog’ va 5 qadog’ sovun berishi yozilgan bo’lardi.

Zavodchi boy K.M.Solovevning moliyaviy ahvoli yomonroq bo’lsa kerak, ish boshlaganimizni dastlabki kunlaridayoq yog’ va sovun uyoqda tursin, hatto ikki-uch oylab ish haqini ham berolmadi. Ishchilar norozi bo’la boshladilar.

Inqilobiy kayfiyatdagi zavod mehanigi yordamchisi Georgiy Federovich Kunesovning ko’rsatmasiga binoan men ishchilarni ish tashlashga undab tashviqot qila boshladim. Nihoyat 1908 yilning 21 aprel kuni ishchilar ishga chiqmadilar, ish tashlash kuni bo’yi davom etdi. Bizning talablarimiz kamtarona bo’lib, sakkiz soatlik ish kuni joriy etish, ish haqlarini o’z vaqtida berishdan iborat edi.

Ish tashlash tufayli talablarimiz qondirildi. Ertasi kundan boshlab ish uch smenali qilindi. Kuniga sakkiz soatdan ishlay boshladik. Ish tashlashni to’rtinchi kuni korxona egasi o’zining Haqquloboddagi zavodini garovga qo’yib, ishchilarni ish haqlarini to’ladi.

Solovev shunday hotirlaydi. Otamning hususiy mulki bo’lgan bu korxonada men ko’p ishlamagan bo’lsam ham u men uchun ancha qadrli va e’zozlidur. Chunki, mehnat faoliyatimni ayni shu erda, Andijonda boshlaganman. Chigit yog’i ishlab chiqarish jarayonlari va sirlarini huddi shu korxonada o’rganganman. Laboratoriyada ham ishlaganman. Yog’ni rafinasiyalashni esa shu zavod tarkibiga kiruvchi va otamning mulki

hisoblangan Chust yog' zavodi va uning Namangan punkitida o'rganganman. Uzoq vaqt yog'-moy sanoatida ishlash Kotsin va Usovlar mening dastlabki ustozlarim hisoblanadilar.

Men shirkatga zavodlar bosh boshqaruvchisining yordamchisi bo'lib ishlash chog'imda ishlab chiqarish jarayonlari kuzatib borganman. Asr boshlarida Turkistonda yog'-moy sanoati tez suratlar bilan rivojlana bordi. Natijada ko'p va sifatli yog' ishlab chiqarish har bir korxona egasini oromini oldi. Shundan bo'lsa kerak otam o'sha davrda yog'-moy sanoati yuksalishida peshqadam bo'lgan amerikalik biznesmanlar bilan hamkorlik o'rnatish maqsadida o'sha tomonga tijorat safari qildi. Uzoq muddat Amerikada bo'lib, o'nlab yog' zavodlari ishi bilan tanishdi. Ana shu zavodlarning texnologikasbob-uskunalarini etkazib beruvchi kompaniya va firmalarida bo'lib, maqul kelganlarini sotib olish harakatida bo'ldi. Uzoq muddatli safari davomida bunga erishib Andijonga hali bu atrofda ishlatilmagan jihozlarni olib kelishga muaffaq bo'ldi.

Oradan ko'p vaqt o'tmay otam meni mutaxassi sifatida va o'z malakamni oshirish maqsadida Amerikaga o'n oyga yubordi. Men u erda amerikaliklardan yog'ni rafinasiyalash, sovun pishirish texnologiyalarini ziyrklik bilan puxta o'rgandim. Otam menga amerikaliklarning o'z paxta yog'larini targ'ib-tashviq qilish borasidagi ishlarini ham kuzatishimni tayinlagan edi. Sababi, boya aytganimdek, Andijondagi bosh korxonani texnik jihatdan qayta sozlash ishlarini boshlab yuborilgan edi. Bu esa mahsulot hajmini ko'paytirish bilan bir vaqtda sifatini ham oshirishga hizmat quilar edi. Men o'n oy Amerikada bo'lar ekanman, otam tayinlagan barcha vazifalarni uddalash harakatida bo'ldim. Bu erga kelgach esa Amerikada o'rgangan narsalarimni ishlab chiqarishga tatbiq etish yo'lida mehnat qila boshladim. Haqiqatdan ham, otam va men ko'rgan, bilgan narsalar zavod rivojiga hizmaty qildi. Ayni vaqtda bu erda Amerikadan taklif qilingan yuqori malakali Matta isimli ishchi texnologik jarayonlarini o'zlashtirishda mahalliy kadrlarga

utsozlik qilganligi ham umum ishga hissa qo'shdi. 1912 yildan boshlab "Paxtaoyl" degan tamg'a bilanyuqori siffatda yog' tayorlash mumkin bo'ldi va bu yog' Rossiya tomonlarda haridorgir bo'lib ketdi.

Ma'lum muddat harbiy hizmatni o'tadim. Men hizmatda ekanligimda mulki yong'in oqibatida kuyib kul bo'lgan edi. Ana shu voqeadan so'ng otam zavodni yana qayta turgizib yuborish imkoniyati yo'qligi sababli bo'lsa kerak, Andijonda ish olib borayotgan har xil savdo-sanoat kompaniyalari va firmalaridan 5 tasiga besh yil muddatda ijaraga berib yuborishni lozim ko'rgan. Harbiy hizmatni tamomlab menga qadrdon bo'lib qolgn zavodga ishlash uchun keldim. "Beshbosh" zavodi rahbariyati meni ishga qabul qilmaganligi sababli Andijon uezdining Haqqulobod qishlog'ida joylashgan otamga qarashli yog' zavodida har xil lavozimlarda ishladim. Yog'-moy bilan bog'liq lavozimlarda, masul vazifalarda 1955 yilda pensiyaga chiqqunimcha ishlab keldim. Yog'-moy sanoati sohasida markazda ishlagan chog'larimda ham O'zbekiston va bu erdagi qadrdonlarim bilan hech vaqt do'tlik aloqalarini uzmadim. Soha hodimlarining izzat-hurmatiga, mahnat jamoalarining etiboriga sazovor bo'ldim. Eng muhumi ana shu mehnatlarimning qadri sifatida bir necha bor orden va medallarni olish menga nasib etdi.

Endilikda qarilik gashtini surar ekanman, hayotimning o'tmish sahifalariga quvonch bilan nazar tashlayman. O'zbekiston va Andijonda o'tgan yoshlik davrlarimning ayanchli va quvonchli onlarimni, birgalikda ishlagan safdosh va hamkasblarimning hotiralarini ko'z oldimga keltirib hamisha eslayman. Hayot bo'lganlari bilan esa hanuzgacha hat almashib turaman.

1991 yil 1 sentabr mamlakatimiz tarixida yorqin kun bo'lib qoldi. O'zbekiston oily kengashining navbatdan tashqari sessiyasida O'zbekistonni Mustaqil mamlakat deb e'lon qilindi. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonida e'lon qilingan mustaqillik xalqimiz qaddini tiklash yo'lida beqiyos jasorat bahsh etdi. Chor samoderjaviesi Turkistonga hom ashyo ilinjida yurish qilgan

edi. 130 yildan ortiq vaqt ichida olib ketilgan hom ashyoning hisob-kitobi mustaqillik sharofati bialn yuzaga chiqa boshladi.

Eng kekxa korxona bo'lmish Andijon yog'-moy kambinati ham faqat o'zgalar uchun mahsulot chiqara edi. Katta zavod vakillari yahshi bilishadi: Andijonda tayyorlanayotgan sheluxa va kunjara, texnik yog' hamda boshqa ikkilamchi mahsulotlar faqat markaz taxsimotida edi. Jumladan, sheluxa faqat gidroliz zavodiga berilardi. Kunjara esa markaz tomonlarga yuborilardi. Chigit ekib paxta o'stiradigan xo'jalikka esa biror gramm ana shunday mahsulotlar berilmas edi. Prezidentimizning dastlabki farmonlaridan biri ana shu mahsulotlarni xo'jalik ihtiyoriga berish to'g'risida bo'ldi. Ana shundan so'nggina korxonada tayyorlanayotgan chorva ozuqasi o'zimizniki bo'ldi. 1995 yil yanvar oyidan boshlab Andijon yog'-moy kambinati negizida "Andijonyog'moy" aksiyadorlik jamiyati tashkil etilib, faoliyati mulkchilikning o'zga shaklida ish boshladi. Dastlabki yog' ishlab chiqaruvchi zavodlar 1884 yilda Qo'qon va Toshkentda paydo bo'ldi. 1897 yilda Kattaqo'rg'onda ham yog' zavodining qurulishi o'lkada yirik yog' ishlab chiqarish korxonalarining paydo bo'lishiga asos yaratdi. 1915 yilda bu yog' zavodi qariyb 2 mln pud yog', 5 mln puddan ko'proq kunjara, 5 mln pudga yaqin sho'lxa ishlab chiqargan. Yog' ishlab chiqaruvchi korxonalarning anchagina qismi Farg'onada joylashgan. Bu erda tayorlangan o'simlik yog'ining talay qismi Rossiyaga, kunjara Germaniya va Angliyaga olib ketilgan. 1907 yili yarim hunarmandchilikka asoslangan yog' zavodi qurildi. Dastlab bu zavod bir kecha-kunduzda 50 tonna jigiti qayta ishlab, 8 tonnaga yaqin yog' chiqarar edi. 1954 yili zavod yog' moy kambinatiga aylantirildi¹.

Paxta sanoatining yirik manopol birlashmalari ham vujudga keldi. 1915 yilning iyulida 5 ta yirik firmani birlashtirgan "Beshbosh" savdo-sanoat shirkati tashkil etildi. 1892 yildan 1915 yilgacha o'lkada davlat banklarini 10

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 238.

ga yaqin bo'limlari va hususiy tijorat banklarining 40 ta bo'limi ochildi. Bank-moliya kapitali O'rta Osiyo iqtisodiyotining barcha sohalariga kirib bordi. Dastlabki manapoliyalarning paxtachilikda va u bilan bog'liq bo'lgan yog' ishlab chiqarish sohasida vujudga keldi. Lekin ular ichki jamg'armalar hisobiga ega emas, balki Rossiya moliya kapitali tomonidan tashkil etildi. Turkiston o'lkasiga xorijiy firmalar va ularning kapitallari ham kirib keldi. Ular orasida jahonga mashhur "Zinger" firmasi alohida o'rin tutadi. Rossiyananing o'lka bilan bog'langan temir yo'llari ishga tushurilgach, rus va chet el kapitallarining Turkistonga kirishi uchun katta imkoniyatlar ochildi"¹.

Tog' kon sanoati haqida gap ketganda bu soha juda og'ir sanoat sohasi hisoblanadi.

"Turkiston o'lkasida qadimdan foydali qazilmalardan keng foydalanilgan. Ulardan harbiy qurollar, uy ro'zg'or buyumlari va hunarmandchilik asboblari tayorlangan. Shuni aytish lozimki, konlarni texnika jixatdan takomillashtirish va ishlab chiqarishning samaradorligini oshirishga etarli darajada ahamiyat berilmagan. Natijada oddiy qurollar va qo'l kuchidan foydalanish asrlar osha davom etgan. Hatto konlar o'z holiga tashlab qo'yilgan vaqtlar ham bo'lgan. Bunday holat XVI-XIX asrlarda, ya'ni xonliklar davrida ko'zga tashlangan edi. Foydali qazilmalardan foydalanmaslik xonliklar davrida qoloqlik va inqirozlarni yuzaga keltirgan sabablardan biridir.

Rossiya xonliklarni bosib olganidan keyin foydali qazilmalarni ochishga kirishildi. Bu ish ayniqsa Farg'ona vodiysida ancha qizg'in tus olgan. Malumki, viloyatda neft ishlab chiqarishni o'zbeklar allaqachon yo'lga qo'yishgan edi.

Bu ishni rus savdo-sanoat vakillari davom ettirib, rivojlantirib yubordilar. Ular o'z faoliyatini 1868 yildayoq boshlab, Qo'qon xoni Xudoyorxon bilan kelishilgan holda neft ishlab chiqarish bilan shug'illangan.

¹ Ўша жойда. —Б.246.

Bu ishga Feodorov, axaludov, Zako, Gromov va boshqalar qo'l urgan bo'lib, shatnomaga ko'ra xonlikka mahsulotni o'ndan bir qismio berilishi kerak edi. Biroq texnika jihozlari etishmasligi va boshq aqiyinchiliklar sababli ish to'xtatilgan.qoqon xonligi tugatilgandan keyin foydali qazilma konlarini ochish kuchayib ketdi.

Tadbirkorlar neftdan kerosin olishni yo'lga qo'ydi. Ammo mablag etishmasligi sababali uning faoliyati ham to'xtagan. Biroq neft ishlab chiqarishga qartilgan faoliyat davom etib, 25 ta kon borligi aniqlangan bo'lsada, ulardan to'rtasigina mahsulott bergan. Shuningdek, 1888 yilda Andijon uezdida 2000 chelakdan ortiq, 1899 yilda 8809 pud neft tayyorlangan. Neftdan mum va xilka (qurulish jihozi) olinar edi.

1889 yilda vodiy hududida temir yo'lni kiribkelishi munosabati bilan neftga bo'lgan talab kuchaydi. Shu bois neft qazish ishlari brogan sari o'sib brogan. Konlar kapitaliotslarg ijaraga berildi. Andijon uezdida 5430 pud (4140 so'mlik), bundan tashqari shag'al zarrachalari aralashgan 10,310 pud (2522 so'mlik) neft olingan¹. Viloyatda toshko'mir konini ochish ham boshlangan. XIX asr oxirlarida tog'-kon sanoati uncha hali rivojlanmagan edi. Bu to'g'rida jonli guvhlartda biri shunday yozgan: shubhasiz, Farg'ona viloyati foydali qazilmalarga boy mintaqadir. Biroq bu sohada datslabki qadam qo'yilgan xolos. Tog'-kon sanoatini rivojlamaganligiga tehnika jihozlari va mablag' etishmasligi sabab bo'lmoqda. Shu bois toshko'mir, neft, oltingugurt, ganch va osh tuzi mahalliy ehtiyoji qondiirsh uchunginaishlab chiqarilmoqda. 1901-1904 yillarda injiner Mixaylov ham neft konlarini ishga tushurish bo'yicha foydaliishlar qilgan. Natijada neftni otilib chiqishiga erishildi. Masalan, Namangan uezdida Chimyon va Moylisoy konlari shular jumlasidandir. Farg'ona vodiysida faqat neft emas, balki toshko'mir ishlab chiqarish ham salmoqli o'rinni ham egallagan.toshko'mir konlari Andijon atrofidagi

¹ Зиёев Х Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX asr ikkinchi yarmi –XXasr bo'shlari.) T.: Sharq, 2006. –B.251.

Chang'itsuv, Navka, Qizilqiya, Markasoy, Isimbuloq, Jal, Sulyuk, Yapalan, Jinjigan degan joylarda ishga tushirilgan. Konda ruslar, qirg'izlar, afg'onlar vatojiklar ishlab, ish haqini o'z vaqtida ololmagan. Jaldagi konda 28 nafar rus, 12 nafar tojik, 7 nafar qozon tatar, 3 nafar eronlik, 2 nafar o'zbek, jami 52 nafar kishi mehnat qilgan. Jinjigan konida 1989 yildan to 1905 yilgacha 3 million pud ko'mir qazib olingan. Viloyatda ochilgan konlarni hammasi muntazam ishlay bermagan. Masalan, 1901 yilda 7 ta kondan 3 tasi, 1908 yilda 7-8 tya, 1910 yilda 10 ta va 1913 yilga kelib 17 kon mahsulot bergan. agar 1901 yilda 235429 pud ko'mir qazib olingan bo'lsa, keyingi yillarda bu raqam oshib borganligi ko'zga tashlanadi. Xususan, 1905 yilda 1378018 pud, 1910 yilda 2227380 pud va 1911 yilda 3972068 pud ko'mir olingan¹. Ayrim yillarni hisobga olmaganda toshko'mir qazish rivojlanib borgan edi. Shurob, Markasoy, Qizilqiya va Sulyuk ko'mirlarining sifati yahshi hisoblangan.

Farg'ona viloyatida mis koni ham ochilgan, shunday qilib viloyatda neft, toshko'mir, mis. Oltingugvurt, asfalt, osh tuzi, ozokerit saingari er otsiboyliklari qazib olingan. Farg'ona vodiysi zamini qazilma boyliklarga ega ekanligi qadimdan malum. Bu zaminda neft olish uchun datslabki parmalash ishlari XIX asr oxirlaridayoq boshlangan. Datslabki neft qudug'ini ishga tushurish 1880 yilga to'g'ri keladi.

1901 yilda mehanzmlar yordamida parmalash ishlari boshlandi. 278 metr chuqurlikda qazilgan birinchi quduq 1904 yilda ishga tushdi. Bu Anjondagina emas, butun O'zbekistonda birinchi neft qudug'i edi. Bu qudug' bir kecha-kunduzda 130 tonna mahsulot bera boshladi. Mamlakatimizda neft sanoati tarixi ana shu quduqning ishga tushushidan boshlangan desak, mubolag'a bo'lmas"².

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустанлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 238.

² Зиёев Х. Ўзбекистон мустанлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми –XXаср бошлари.) Т.: Шарқ, 2006. –Б.254.

Chor hukumati umuman O'rta Osiyoni o'z mustamlakasiga aylantirib olar ekan, uning tuzgan tartibi albatta mahalliy mehnatkashlarni ezishga, ularning huquqlarini poymol qilishga qaratilgan edi. Rus hukumati Turkiston o'lkasida sanoat korxonalarini qurgan bo'lsa, u hech qachon og'ir indutsiya tarmoqlarini yaratishga intilgan emas. Paxta tozalash, yog' ishlab chiqarish, vino, pivo zavodlari, pilla quritish korxonasi, tegirmon, bosmaxona va hokozolar ana shunday korxonalardur. Agar 1880 yilgacha bunday korxonlar 21 ta bo'lsa, 1900 yilda ularning soni 195 taga etdi. 1914 yilda esa faqat hozirgi O'zbekiston hududiga kirgan viloyatlarda 613 ta engil sanoat korxonalari bor edi. Shunga ko'ra ishchilar sinfi ham ko'rsatilgan davrda tahminan 10 ming kishidan 18.914 kishiga ko'paydi. O'lkada paxta, ipak va boshqa hom ashyolardan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari qurilmadi. U chor hukumatining xomashyo manbaiga aylandi. Bu ham etmaganidek, o'lka sanoat korxonalarining bozori bo'lib qoldi. Turkiston aholisining Rossiya bosqinidan keyingi nufuzi va umumiy soni haqida aniq malumotlar yo'q. Imperator Aleksandr III ning topshirig'iga ko'ra Turkiston o'lkasining taftish qilgan (1882-1884) Girsning aniqlashicha, Turkistonda hammasi (erkak va ayol) bo'lib 240600 kishi itsiqomat qilgan va shundan erkaklar soni tahminan 120000 kishini tashkil qiladi. Manbalarda guvohlik berishicha, XX asr boshida o'lkada 7464100 kishi, Buxoro amirligida 2236437, Xiva xonligida esa 640000 ko'proq kishi yashagan.

Turkiston xazina palatasi tomonidan soliq to'lovchilarning soni va ularning iqtisodiy imkoniyatlari aniqlash maqsadida tuzilgan ishtimoiy xo'jalik boshqarmasi hujjatlarida ko'rsatilishicha, 1884-yilda Qo'qon shahrida 7711 hovli bo'lib, ularda 60000 o'zbek, 2400 tojik, 420 qirg'iz, 410 lo'li, 302 rus, 72 dungan, 21 hind, 17 afg'on itsiqomat qilgan. Qo'qon shahri aholisini umumiy soni 63642 kishiga etgan¹. "Umuman olganda ,-deb yozgan edi Girs,-

¹ Зиёев Х Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX asr ikkinchi yarmi –XX asr boshlari.) T.: Шарқ, 2006. –Б.255.

Turkiston o'lkasining aholisi imperiyani boshqa qismlarida itsiqomat qiluvchi musulmon aholi singari rus hukumatiga nisbatan yahshi munosabatda ekanligini payqamaslikning iloji yo'q. Shubha yo'qki, o'zining siyosiy mustaqilligini yo'qotib qo'ygan xalqda o'tmishni eslash uning g'olibga nisbatan bo'lgan munosabatida yoqimsiz tasirini o'tkazmay qolmeydi. Biroq hukumatimiz bu tuyg'uni yumshatish uchun mag'lub xalqning iqtisodiy ahvolini yahshilash maqsadida ko'p ishlarni amalgam oshirdi". Imperiya davlat kengashida Turkiston aholisining ruslar bilan birga ta'lim olishlariga yo'l qo'yish masalasi muhokama etilganda, Rossiya imperiyasini harbiy vaziri general-adyutant graf Milyutin ham, xalq maorifi vaziri, haqiqiy maslahatchi graf Toltsoy ham Girsning yuqoridagigaplariga hamohang fikrlar bildirishgan edi. Har ikki vazir ham mahaliy aholi, hususan, o'zbeklardan tashkil topgan va savdo va dehqonchilik bilan shug'ulanayotgan muloyim tabiati bilan ajralib turgan musulmon aholini yoppasiga mutaassib deb atash adolatdan bo'lmasligini qayd etishgan. Vazirlar "ularning ruslar bilan birga talim olishlariga ruxsat berish" mumkinligini etirof etishgan.

O'lkada qurilgan birinchi temir yo'l chor Rossiyasining bosqinchilik manfaatlarini ko'zlagan. 1880 yilda boshlangan, chor mamurlari uchun g'oyatda og'ir bo'lgan Axaltaka urushi Rossiyani Kaspiorti temir yo'lini qurishga majbur etdi. Mixaylovskiy bo'g'ozidan to Qizil Arvotgacha bo'lgan bu temir yo'l qurulishining birinchi navbati 1881 yil 1 sentabrgacha bitkazildi va 20 sentabrdan etiboran doimiy suratda poezdlar qatnovi boshlandi ¹. Keyinchalik temir yo'l qurulishi davom ettirilib, Ashxobodga, so'ng Samarqandga keltirildi. 1888 yil 15 mayda birinchi poezd Samarqandga keldi. 1889 yilda temir yo'llar aloqalari Mari-Kushka orqali Toshkent va Andijon bilan bog'landi. 1890 yili Rusiya hukumatining yuqori mansabdorlari o'rtasidagi uzoq fikr almashuvlaridan so'ng yangi – Orenburg – Toshkent

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 238.

temir yo'l qurulishi boshlab yuborildi va 1905 yil 1 iyulda bu yo'ldan birinchi poezd o'tdi. Chunki Kaspiy temir yo'li orqali Turkiston bilan aloqa o'rnatish masofaning uzoqligi tufayli Rusiyaga iqtisodiy jixatdan qimmatga tushayotga edi. Endi yangi temir yo'l qurulishi munosabati bilan Toshkentdan Orenburggacha bo'lgan masofalariga qaraganda ancha qisqa muddatda – ikki kecha kunduzda, Moskvagacha esa to'rt kecha kunduzda bosib o'tiladigan bo'ldi. Har ikkala temir yo'l ham Turkiston xalqlarining manfaatlarini ko'zlab, yoki Turkistonni jaxon mamlakatlari bilan bog'lash maqsadida qurilgan emas. Rusiya mamuriyati but emir yo'llarni birinchi navbatda Turkiston o'lkasidagi xalq boyliklarini tezroq, ko'proq tashib olib ketish maqsadi bilan qurdi. Bu borada raqamlar tilioga quloq soladigan bo'lsak, masala yana oydinlashadi. 1888 yilda Turkistonda O'rta Osiyo temir yo'li orqali 873.093 pud paxta jo'natilgan bo'lsa, 1890 yilda 2.673.267 pud va 1893 yilda 3.558.025 pud paxta Rusiyaga yuborilgan. Yoki 1888-1893 yillarda, yani olti yil Turkiston o'lkasidan 14.257.515 pud qimmatbaho paxta hom ashyosi Rusiyaga tashib ketilgan. Bu jarayon yil sayin oshib boravergan. Faqat 1900 yilning o'zida O'rta Osiyo temir yo'li orqali Rusiyaga tashib olib ketilgan boyliklar hajmi 5 million pudni tashkil etdi. Shundan 60 % paxta bo'lib, qolganlari quruq meva va ipak tolasi, paxta yog'i, jun, teri va boshqa mahsulotlar edi. Temir yo'l qurulishi bilan bu sohaning ishchilari soni ham o'sib bordi. 1890 yilda temir yo'llarda 2778 ischi ishlagan bo'lsa, 1894 yilda 3222 va 1898 yilda 5044 ishchi ishlagan. Shundan mahalliy millat vakillari 1890 yilda 728 kishini, 1894 yilda – 863 va 1898 yilda 728 kishini, 1898 yilda esa 948 kishini tashkil etgan¹.

Xullas chor mamurlari turli yo'llar bilan Turkiston o'lka boyliklarini talab, mehnatkash xalqning qonini zulukdek so'riydilar. Ular bu boradagi

¹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси муштамлакачилиги даврида. Т.: Шарқ 2000. -Б. 240.

jirkanch niyatlarinin hech kimndan yashirgan ham emaslar va faqat o'lkada ko'plab boylik va foyda olib ketish niyati bilan nafas olganlar.

III – bob. Shahrixonning tarixiy va me'moriy yodgorliklari.

Mamlakatimizda tarixiy madaniy obyektlarni muhofaza qilish, tiklash ishlarida katta e'tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda 2001- yil 30- avgustda O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" qonuni qabul qilindi.¹ Va bu qonun asosida mamlakatimiz bo'yicha ko'plab ishlar amalga oshirildi. Shu o'rinda viloyatimizda ham madaniy obektlar va ularni muhofaza qilish ko'plab ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2011-yilda viloyat hokimining O'zbekiston Respublikasining "Madaniy meros ob'ektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish to'g'risida" 2001 -yil 30-avgustdagi Qonuni hamda "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6-, 25-moddalariga asosan viloyatda madaniy meros ob'ektlarini qayta xatlovdan o'tkazish yakunlari to'g'risida qaror qabul qiladi². Qarorga asosan viloyatdagi madaniy meros obyektlari ro'yhati tuziladi. Shunga ko'ra Shahrixon tumanidagi madaniy meros obyektlari ro'yhati quyidagi jadvalda keltirilgan.

Shahrixon tumani hududidagi arxeologik obyektlar								
№	Nomlanishi	Turi: (tepalik, g'or, shaharcha, buloq va hokazo)	Sanasi davri	Toifasi (kategoriyasi)	Davlat muhofazasiga olinganligi to'g'risidagi qaror № va sanasi	Manzili	Hozirgi kundagi texnik holati	Foydalanuvchi
1.	Kamoltepa	Arxeologiya	5-8 asr	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Shahrixon	Yaxshi	Foydalanilmaydi

¹ Andijonnomg gazetasi, 2001- yil, 31- avgust, 72-son.

² Shahrixon muzeyi fondi. Yordamchi ilmiy bisotlar.

2.	Jumtepa	Arxeologiya	5-8 asr	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Abdubiy QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi
3.	Gurovon tepaligi	Arxeologiya	5-8 asr	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Yuqori Shahrixon QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi
4.	Devatagi tepaligi	Arxeologiya	5-8 asr	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Toshtepa QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi
5.	Oq toʻnlik mozor tepa	Arxeologiya	5-8 asr	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Toshtepa QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi
6.	Maslahat tepa	Arxeologiya	5-8 asr	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Oʻzbekiston QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi
7.	Toʻngiz tepa	Arxeologiya	5-8 asr	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Guliston QFY	Yaxshi	Foydalanilmaydi

Shahrixon tumani hududidagi meʼmoriy obidalar								
1.	Ponsod masjidi	Masjid	1903 y	Respublika	Vil. hok. №218 2006 y.	Shahrixon shahri	Yaxshi	Diniy jamoa
2.	Gumbaz	Masjid	1880 y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Yangi yoʻl QFY	Yaxshi	Yangi yoʻl QFY
3.	Dorulomon masjidi	Masjid	1912 y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Haqiqat QFY	Yaxshi	Diniy jamoa
4.	Qipchoq qoʻrgʻon masjidi	Masjid	1909 y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Yangi yoʻl QFY	Taʼmirga muxtoj	Diniy jamoa
5.	Gultepa masjidi	Masjid	-	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Shahrixon shahri	Yaxshi	Diniy jamoa
Mahobatli sanʼat obyektlari								
1.	II jahon	Majmua	1975y	Mahalliy	Vil.	Toshtepa	Yaxshi	Beton, marmar

	urushi qatnashchil ariga				hok. №218 2006 y.	QFY		
2.	II jahon urushi qatnashchil ariga	Majmua	1968y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Paxtaobod QFY	Yaxshi	Beton, marmar
3.	II jahon urushi qatnashchil ariga	Majmua	1975y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	Yangi Yo'l QFY	Yaxshi	Beton, marmar
4.	U. Yoqubov xotira lavhasi	Lavha	1970y	Mahalliy	Vil. hok. №218 2006 y.	48-maktab	Yaxshi	Beton, marmar

Diqqatga sazovor joylar					
1	Mushkulkushod mozori	Guliston QFY	Noaniq	Mozor-ziyoratgoh, choyxona	Diniy ulamo
2.	Ko'k to'nlik	Shahrixon tumani	Noaniq	Mozor-ziyoratgoh	Diniy ulamo
3.	Oq to'nlik	Toshtepa QFY	Noaniq	Mozor-ziyoratgoh, buloq	Diniy ulamo
4.	Buvanazar buva ziyosatgohi	Yangi zamon QFY	1885y	Mozor-ziyoratgoh, choyxona	Buvanazar buva

Tuman hududidagi arxeologik obyektlar

Kamoltepa yodgorligi tuman hududidagi eng qadimiy yodgorlik hisoblanadi. Shahrixon tumani va shahrini tarixini o'rganish maqsadida 1982- yili O'zbekiston fanlar akademiyasi Samarqand arxeologiya ilmiy tekshirish institutining olimlari bilan hamkorlikda, uning Andijon viloyati bo'limi boshlig'i tarix fanlari nomzodi, ekspeditsiya rahbari Baxtigul Abdulg'oziyeva, Shahrixon muzeyi direktori Xaybatullo

Faxruddinov, ilmiy hodim Esonboy Sarimsoqov va boshqa hodimlar ishtirokida Shahixon shahrining g'arbiy qismida (4 km. uzoqlikda) joylashgan Kamoltepa tepaligi yonidagi 4 gektarlik maydonda arxeologik qazish ishlari olib borildi. Kamoltepa sirlari asta ochilib, ko'plab tarixiy topilmalar topilgan. Ulardan 52 ta sopol siniqlari, pishirilgan humdonlar va ulardan har birining yonida sopol idishlari siniqlari topilgan. Yana ham muhimroq sopol va xum va xumchalar, tosh yorg'uchoq, qo'l tegirmon, kosiblarning tosh qolipi, toshdan yasalgan olma nusxasi, simob ko'zacha, qoraxoniylar, somoniylar davrida zarb qilingan mis chaqa pullar, ayollar bilak uzugi topildi. Barcha topilmalar tarixi arxeologlar tomonidan ilmiy asosda o'rganib chiqildi va Shahrixon muzeyi ilmiy bisotiga ro'yhatga olinib, namoyishgohga ko'rgazma uchun qo'yilgan.

Xulosalar shuni ma'lum qiladiki, Kamoltepa I-IV –asrlarda yirik kulolchilik shaharchasi bo'lgan. Bu yerda odamlar yashagan ekan. Ayniqsa, kulolchilik buyumlarini yasashda ayollar mehnati ko'p bo'lgan, sabab shu sopol humlarda ayollarning barmoq izlari ko'rinib turadi. XII-XIII asrlarga kelib tuproq madaniy qatlamlari topilmalarida birdaniga uzilish kuzatilgan. Bu esa shaharchaning mo'g'ullar tomonidan vayron etilganidan daloat beradi. Qolaversa, Qoradaryo o'zaning o'zgartiganligi ham shaharchaga ta'sirini o'tkazagan. Kamoltepa shahrixon hududidagi eng qadimiy arxeologik yodgorlik hisoblanadi.

Jumtepa yodgorligi Shahrixonsoyning etaklaridan o'rin olgan. Markazi Jumtepa yoki Nimtepa miloddan avvalgi II-I asrlarning oxiri milodiy I-IV asrlarga oid. Uning atrofida bir necha istiqomatgohlar Mirzatepa, Abdubiy, Do'lan qishlog'i hududidagi Oqrabot qo'rg'oni va To'ng'iz tepa kabi qator turar joylar mavjud. Bu joylar Farg'ona vodiysidan o'tuvchi Buyuk Ipak yo'lining tarmoqlaridan biridagi karvonsaroy vazifasini o'tagan deb tahmin qilinadi.

Oqto'nlik tepa arxeologik yodgorligi Tosh-tepa Q.F.Y. hududida joylashgan bo'lib, milodiy V- VIII asrlarga oid.

Arab qishlog' hududida joylashgan Tuksovul (To'qsovul) ota mozor tepaligi ham milodiy V-VIII asrlarga oid.

Tuman hududidagi me'moriy obidalar

Ponsod masjidi Shahrixon tumaning markaziy qismida joylashgan bo'lib, qadimiy yodgorliklaridan hisoblanadi. Masjidning bunyod etilishi shahrixonlik Matisa ponsod ismi bilan bog'lanadi. O'z davrida o'zining saxovatpeshaligi, dinparvarligi bilan xalq o'ratasida hurmat qozongan Matisa Ponsod 1825- yilda Shahrixon shahrida tug'ilgan¹.

Matisaning padari buzrukvori Mirza Og'alik Shahri xonning hurmatli kishilaridan edi. Unga nisbatan „og'alik unvonining berilganining sababi, u Qo'qon xoni Muhammad Alixonning yaqin maslahatchisi bo'lgan.

Matisa harbiy bilimlarni mukammal egallagan qo'mondon edi shuning uchun hamunga Ponsod (beshyuzboshi) unvoni beriladi. Muhammad Is'hoq Ponsod payg'mbar yoshida Makkai Mukarrama ziyoratida bo'ladi. U haj safaridan qaytganidan so'ng katta mablag' ajratib, dini islom rivojiga o'zining munosib xissasini qo'shish maqsadida Ponsod masjidini qurishga kirishadi. Keng xonaqoxli, qo'shayvonli, vassajuftli masjid 1888-yilda qurib bitkaziladi. Shu tariqa Ponsod masjidi Farg'ona vodiysi bo'ylab mashhur bo'lib ketadi.

Ponsod masjidi juda ko'p voqealarning shohidi bo'lgan. 1916-yilgi „Shahrixon qo'zg'aloni“ ayni shu masjid yonida bo'lgan edi. 1919-yilgi inqilobiy qo'mita (revkomga saylovlar, keyinroq O'zbekiston jumhuriyatining 1- ta'sis quriltoyiga saylovlar shu yerda bo'lib o'tadi. Keyin esa Ponsod masjidi dahriylik (xudosizlik)

¹ Shahrixon muzeyi fondi. Yordamchi ilmiy bisotlar

mafkurasi ta'sirida qarovsiz qolib ketadi. O'sha paytlarda (1928-1936-yillarda) kimdir masjidning ichkari tomoni devoriga: „Ey , musulmonlar har, qanday o'gir sharoitda ham bu masjidning buzilishiga yo'l qo'ymanglar!“ deb yozib qo'ygan ekan. Bu yozuvning suratiy nusxasi hozirda Shahrixon muzeyining ekponatlaridan biri sanaladi.

Mustaqillik yillarida masjidning obodonlashtirish ishlariga katta e'tibor berildi. Qayta ta'mirlash ishlari olib borildi. Ponsod masjidi YUNESKO ro'yhatiga olingan.

Gumbaz masjid me'moriy yodgorligi Yangi Yo'l Q.F.Y. hududida joylashgan. Ushbu me'moriy yodgorlik 1880- yilda Buvanazar xoji eshon Qurbonbiy o'g'lining mablag'i hisobiga bunyod etilgan degan ma'lumotlar mavjud. Lekin ushbu hududa istiqomat qiluvchi Valixon Eshonning so'zlariga ko'ra, ushbu me'moriy obida 1820- yilda qurilgan ekan. Shahrixon tumani O'lkashunoslik muzeyidan olingan ma'lumotlarga ko'ra esa ushbu yodgorlik hijriy 1285- (1865-yilda) qurilgan, ko'p yillar madrasa vazifasini o'tagan.

„Andijonnoma“ gazetasining 2005-yil 19-oktabr kunidagi sonida esa bino 1825-yil qurilgan¹ deyiladi. Binoning chap qismida Buvanazar hoji eshon Qurbonboy o'g'lining qabri joylashgan. Eshon shu hududda yashgan bo'lib, xalq uni eshon deb atagan. Uning tashabbusi va mablag'i bilan ushbu yodgorlik qurilgan ekan. To shu davrdan boshlab eshon va uning avlodlari shu yerga qarab keladilar. Shu davrgacha eshonning 6 avlodi o'tgan. Bular: Buvanazar Eshon, Xurillavoy Eshon, Xolbo'taxon Eshon, Ma'mirxon Eshon, Muhtorxon Eshon (1930) . Valixon Eshon esa oltinchi avlodi hisoblanadi. Valixon Eshonning aytishicha, bu yodgorlik madrasa vazifasini ham o'tagan ekan. Binoning

¹ Andijonnoma gazetasi. 2005, 19- oktabr, 96-son

orqa qismida 18 ustunli ayvon bo'lgan. Hozirgi kunda ayvon buzilib ketgan bo'lib, o'rnida bog' mavjud.

Yodgorlik 1913-yil (hijriy 1333-yil) Abdulhamidxon ismli shaxs tomonidan ta'mirlangan. Bino 1973, 2005- yillarda ham ta'mirlangan. Binoning kiraverish qismida arab yozuvida yozilgan so'zlar bo'lib uni, o'zbekchaga o'g'irganda quyidagi ma'no kelib chiqadi: „Qaytadim sipoxon qildi xudo, Sipoxonni mag'firat qilgay xodo”.

Yangi Yo'l Q.F.Y. hududidagi Qipchoqqo'rg'on jome masjidi. Ushbu masjid 1909- yilda mahalliy boy Usmon xoji tomonidan qurilgan. Uzoq yillar davomida xalq foydalangan. Qishloq o'ramida (G'anchi nomli hududda) yangi masjid qurilgandan so'ng bu masjid o'z ahamiyatini yo'qotdi.

Binoning qurilishida ko'plab naqqoshlik usullari, ustunlardan foydalanilgan. Masjid hozirda nochor holatga kelib qolgan, ta'mirga muhtoj.

IV – bob. Shahrixon hunarmandlar yurti – pichoqchilik tarixi.

Shahrixonda bozor, savdo-sotiqning rivojlanib, xalqaro bozor darajasiga ko'tarilishi bu yerda hunarmandchilikning tez taraqqiy etishiga keng yo'l ochdi. Shahrixonga Qo'qon va uning atrofidan, Andijon, Farg'ona, Namangan, O'rta Osiyoning boshqa shaharlaridan ko'plab hunarmandlar ko'chib kelishi bu jarayonni yanada tezlashtiradi. Bu erda, ayniqsa, kulolchilik, pichoqchilik, javon-sozlik, ko'nychilik, ipakchilik, beshikchilik, do'ppido'zlik, misgarlik, atlas to'quvchilik tez rivojlanadi.

Shahrixonning sifatli, ko'rkam pichoqlari, serjilo atlaslari, sopol idishlari shuhrat qozona boshlaydi. Mulla Oxund kulol, Oltoy (Alitoy Ubaydillo xoji o'g'li) pichoqchi, Mulla Xakim javonsoz, Isom ko'nci, Ismoil ipakchi singari hunarmand ustalar va ularning shogirdlari ajoyib buyumlar yasab dong taratgan. Ular yasagan buyumlar to'qigan matolar bejirim, ko'rkam, xaridorgirligi bilan ajralib turgan. Shahrixonda bir qancha hunarlar, ayniqsa, pichoqchilik, atlas to'quvchilik, kulolchilik, javonsozlik borasida o'ziga xos maktablar vujudga kelgan, bu hunarlar avloddan-avlodga meros tariqasida o'tgan.

Xalq hunarmandchiligining qadimiy an'analari asosida yuzaga kelgan Shahrixon hunarmandchilik maktabi va uning davomchilarining ham o'ziga yarasha tarixi mavjud. XIX asrning II-yarmi va XX asr boshlarida hunarmandlarning o'ziga xos boshqaruv tartibi, shogird tayyorlashda ham o'ziga yarasha tartib-qoidalar mavjud bo'lgan. Usta o'z qo'l ostidagi xalfa va shogirdlarning hunar sirlarini mukammal o'rganib olishlari uchun mas'ul bo'lgani uchun ham shogirdlarni tanlashga alohida ahamiyat bergan¹.

Shogirdlar, ko'pincha ustaning farzandlari yoki qarindosh-urug'lari, yaqin oshna-og'aynilarining bolalari, shuningdek farzandiga hunar o'rgatishga

¹ Ортикова М. Хунармандлар шахри. – Тошкент: Заркалам, 2006. -32 -б.

ishtiyoqmand kishilarning o'g'il-qizlari bo'lgan. Zardo'zlik, zargarlik, kandakorlik, do'ppido'zlik, to'quvchilik sohalariga shogirdlikka 10—14 yoshli o'g'il va qizlar, kulolchilik, temirchilik, cho'yangarlik, ko'nchilik singari og'ir mehnat talab qiladigan sohalarga 16—17 yoshli o'spirinlar olingan. Shogird tayyorlash muddati hunarning og'ir-engilligi, murakkabligiga qarab 3 yildan 10 yilgacha, ba'zan undan ham ko'p davom etgan.

Ustalar hunar o'rganishda peshqadam shogirdlarini rag'batlantirib turganlar. Ularni o'z hisobidan ovqat, kiyim-kechak bilan ta'minlagan, peshqadam shogirdlariga ma'lum miqdorda ish xaqi ham to'lagan.

Shunday qilib, ma'lum bir davr o'tgandan so'ng shogird ishni yoki buyumni mustaqil bajara oladigan, yasaydigan xalfa darajasiga etgan. Shogird o'zining xalfa, ya'ni usta darajasiga etganligini isbotlash uchun biror buyumni mustaqil yasab, uni oqsoqol va ustaga taqdim etgan. Agar usta shogird tayyorlagan buyumni ma'qul topsa, unga «bel bog'lash» marosimini o'tkazishga ruxsat bergan. Bu marosimda hunarmandlar uyushmasining barcha a'zolari bobo yoki oqsoqol boshchiligida ishtirok etgan va shogirdni muborakbod qilgan. Marosim oxirida usta shogirdiga bir necha asbobini taqsim etib, uning belini bog'lagan va oq fотиha bergan.

Turkistonni chor Rossiyasi bosib olib, o'lka rus tovarlari sotiladigan bozorga aylantirilgach, mahalliy hunarmandlarning ahvoli yanada og'irlashgan. Chunki ular ishlab chiqargan mahsulotlar Rossiyadan keltirilgan nisbatan arzon, sifatli tovarlar bilan raqobatlasha olmasligi tayin edi. Oqibatda mahalliy hunarmandchilikning turli tarmoqlari inqirozga uchradi. Jumladan, ip yigirish, to'qimachilik keskin qisqardi, mahalliy usulda buyumlar ishlab chiqarish ham kamayib ketdi. Bu ko'plab hunarmandlarning xonavayron bo'lishiga, o'z hunarini tashlab, boshqa ish qidirishga majbur qildi.

XIX asrlar oxirlariga kelib, Shahrixon shahri kengayib uning atroflarida qishloqlarning ko'payishi hunarmandchilikning yangi turlari paydo bo'lishiga olib keldi. Bu davrda metalga ishlov berish, ayniqsa, temirchilik kuchaydi.

Temirchilik ustaxonalarida ustalar, xalfa va shogirdlar tinmay ishlab, hunarmandlarni, quruv-chilarni, dehqonlarni zarur asbob-uskunalar bilan ta'minlagan. Bu davrda tesha, arra, randa, iskana, bolg'a singari duradgorchilik, ketmon, o'roq, belkurak, tok qaychi, chalg'i singari dehqonchilik anjomlariga talab, ayniqsa, kuchli edi. Temirchilarning ayrimlari eshik zanjiri, taqa, turli mixlar, qarmoqlar, arava o'qla-ri, g'ildirak chambaragi tayyorlasa, yana bir guruhi quruvchilar, duradgorlar uchun asbob-uskunalar chiqarar, yana boshqasi arra, pichoq, qaychi, ketmon, o'roq yasardi. Shahrixonlik temirchilar zarurat tug'ilganda qilich, xanjar, qalqon singari qurol-aslahalar ham tayyorlagan. Ular yasagan qilich va pichoqlar mashhur bo'lgan.

Shahrixonda tunukasozlik, misgarlik maxsulotlariga, ayniqsa, mis buyumlarga ehtiyoj katta edi. Misgarlik ustaxonalarida uy-ro'zg'or buyumlari: qumg'on, chov-gum, choynak, piyola, obdasta, chilopchin, lagan, barkash kabi ko'plab buyumlar tayyorlangan. Bu hunar rivojlanib, takomillashib shu darajaga etdiki, kandakorlar nozik naqshlar bilan bezatgan mis buyumlar san'at asarlari sifatida baholana boshladi. Uch xil usta: misgar, rixtagar va kandakor mehnati, san'ati bilan yuzaga kelgan zeb-ziynatli mis buyumlar katta boylar, saroy a'yonlari uylaridan o'rin olgan, chet ellarda ham yuksak baholangan, shahrixonlik ustalar dovrug'ini yoygan.

Shahrixon zargarlarining ham dovrug'i baland bo'lgan. Ular yasagan xotin-qizlar taqinchoqlari: uzuk, bilaguzuk, sirg'alar, tillaqosh, bargak, zebigardon, turli ziy-natli tumorlar, ayniqsa, xaridorgir edi. Ular, xatto, Rossiyaning zargarlik san'ati mahsulotlari bilan ham bahslashgan.

Kulolchilik Shahrixonda qadimiy hunarlardan sanaladi. Buni Kamoltepadan topilgan qadimgi sopol buyumlar qoldiqlari, sopol idishlar pishirilgan xumdonlar ham isbotlashi mumkin. Kulolchilik O'rta Osiyoda keng tarqalgan, taraqqiy etgan sohalardan edi. XIX asrda, ayniqsa uning 2-yarmida

Buxoro, Samarqand, Andijon, Namangan, Qo‘qon kulolchilik markazlari sanalgan.

Shahrixon aholisi, jumladan, hunarmandlarining ko‘pchiligi Qo‘qon va uning atrofidan, Andijondan ko‘chib kelganligi tufayli ham Shahrixon kulolchiligining bu davrdagi rivojida Qo‘qon, Rishton va Andijon kulolchilik maktablarining ta’siri kuchli bo‘lgan. Ular ko‘proq ko‘za, xum, kosa, piyola, lagan, tovoq, tog‘ora singari uy-ro‘zg‘or buyumlari yasashgan. Chunki bunday idishlarga ehtiyoj katta edi. Shu asrning o‘rtalariga kelib, sopol idishlariga naqsh gul solish, sir berish keng rasm bo‘la boshladi. Shahrixonlik usta kulollar yasagan nafis chizma bilan jilolangan, sirlangan sopol buyumlar bejirimligi, ko‘rkam va xaridorligi bilan ajralib turar edi.

Rossiya istilosiga qadar O‘rta Osiyoning boshqa joylaridagidek Qo‘qon xonligida ham to‘qimachilik va u bilan bog‘liq hunarlar: paxta, jundan ip yigiruvchilar, bo‘yoqchilikga ehtiyoj katta bo‘lgan. XIX-asrning oxiri XX-asrning boshlarida Shahrixondagi o‘nlab to‘quvchilik ustaxonalarida yuzdan ziyod to‘quvchi ishlagan. Ular xalqning ip va ipak gazlamalarga talabini qondirishga harakat qilar edi. Ayniqsa, Shahrixonning shoyi gazlamalari: beqasam, adras, banolas atlaslari bejirim va ko‘rkamligi bilan mashhur bo‘lgan. Shuningdek, shahar va uning atrofidagi qishloqlarda bo‘zchilar, gilamdo‘z, chopondo‘z, do‘ppido‘z, kashtachi, duradgorlar, shirapazlar kabi o‘nlab hunarmandlar ishlagan. Hunarmandlarning mahsulotlariga talab, ehtiyoj katta bo‘lgani uchun shaharda hurmat-e‘tiborga sazovor kishilardan sanalgan, ularning jamoat, shahar hayotidagi o‘rni, ta’siri kuchli bo‘lgan. Jabr-zulm va adolatsizlikka qarshi ko‘tarilgan xalq harakati, ko‘zg‘olonlari boshida, ko‘pincha, hunarmandlar turganligi ham bejiz emas.

Shunga qaramasdan, hunarmandlarning turmushi og‘ir edi. Chunki yuqorida aytilganidek, Rossiyadan keltirilayotgan nisbatan arzon, sifatli sanoat mahsulotlari mahalliy hunarmandlarning bozorini kasodga uchratgan. XIX asr O‘zbekiston shaharlarining iqtisodiy ahvolini tadqiq etgan rus

iqtisodchisi N.Kirjichnikov kulollar hayoti haqida shunday yozgan: «Bir yil davomida olti-sakkiz oy ishlanadi. Ish kuni ertalab oltidan kech oltigacha davom etadi. Ko‘p hollarda kulollar tayyorlagan, lekin sirlanmagan sopol idishlar allof tomonidan sotib olingan. Bir xumdon mahsulot uchun 40 tanga bergan. Usta bir yil davomida 25 marta xumdonni to‘ldirib mahsulot tayyorlagan, ya’ni daromadi 1000 tanga yoki 150 rubl bo‘lgan, shundan 25 rubl ishlab chiqarishga sarflangan. Natijada sof foyda 125 rublni yoki kuniga 35 kopeykani tashkil etgan... Lekin bu mahsulotning bozor narxi 2 barobar yuqori bo‘lgan. Demak, allof vositachiligi uchun hunarmanddan foydasining yarmini olgan»

N.Kirjichnikov hunarmandlarning vositachilarga qaramligi to‘g‘risida yana shu so‘zlarni bitgan: «Zahira mablag‘i bo‘lmagan aksar hunarmandlar allof xizmatidan foydalanishga majbur edi. Negaki, allof odatda hunarmandga mahsulot uchun oldindan pul berib «o‘ziniki» qilib qo‘yadi. Buyumga narxni ham o‘zi belgilar edi. Hunarmand bunday bitimga ko‘nishga majbur bo‘lardi, natijada u makkor vositachining changalidan chiqib ketishga qurbi etmas, uning uchun qulday ishlashdan boshqa chorasi qolmas edi. Mabodo hunarmand o‘zi tayyorlagan buyumni biror do‘konni ijaraga olib, mustaqil sotmoqchi bo‘lsa, alloflar uni sindirish va molini kasod qilish chorasini ko‘rishardi. Ya’ni o‘z mahsulotlarini hunarmandnikidan arzon sotishar, natijada buyumlari sotilmay kasod bo‘lgan hunarmand raqobatga dosh bera olmay, allofga arzon garovga sotib yuborishga majbur bo‘lar edi»¹

Nima bo‘lganda ham o‘z hunari bo‘yicha mahorat cho‘qqisiga erishgan ustalar buyumlar yasashda o‘z uslublarini yaratib, boshqa shaharlardagidan farq qiluvchi Shahrixon hunarmandchilik maktabini vujudga keltirishga muvaffaq bo‘ldilar. Bu, ayniqsa, mamlakatimizdagina emas, xorijiy mamlakatlarda ham dovrug‘ qozongan Shahrixon pichoqchiligida,

¹ Ergashev F. Turkistonda hunarmandchilik va pillachilik. – Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2004-yil, 3-son, 13-b

shoyi-to‘quvchilik, zargarlik, chevarchilik, zardo‘zlik kabilarda ayniqsa yorqin namoyon bo‘lmoqda.

Shahrixon - ko‘hna va betakror xunarmandchilik maskanlaridandir. Viloyat hunarmandlarining qariyb yarmi shu tumanda istiqomad qiladi. Ayniqsa, pichoqchilikda shahrixonliklarga teng keladigani kamdan-kam topiladi. Shahrixonda bir necha yuz yil ilgari tarkib topgan hunarmandchilik turlaridan biri pichoqchilik hisoblanadi. Pichoqchilik ustalari sulolalaridan biri 1730- yilda tug‘ilgan Ismoilxo‘jadan boshlanib, hozir bu sulolaning ettinchi avlodi bobolari kasbini davom ettirmoqda. Peshqadam temirchi ustalar milliy pichoqchilikni san‘at darajasiga ko‘tarib kelmoqdalar.

Shahrixon pichoqlari dunyoning turli burchaklarida mavjud. Masalan, usta Rahmatxo‘ja Alixo‘jaev va shogirdlari yasagan pichoqlar Evropada ham munosib baholangan, xalqaro sifat sertifikati bilan taqdirlangan. Har yili ustaning oldiga o‘nlab kishilar farzanlarini shogirdlikka olib keladi. Rahmatxo‘ja aka bolalarini mahsus “imtixon” asosida qabul qiladi. Yillar davomida o‘z shogirdlariga kasb sirlarini qunt bilan o‘rgatadi¹.

Shahrixon va uning atrofidagi xududlarda yashaydigan qirq nafardan ziyod pichoqchilarning ustози Rahmatxo‘ja Alixo‘jaevdir. Ustaning avlodi XIX asrning ikkinchi yarmida o‘z davrining mohir temirchisi, pichoqchi ustasi sifatida dong taratgan Usta Ubaydullo eshon Musaxo‘jaev bo‘lgan. U 1874-yilda tug‘ilib, etmish uch yil umr ko‘rgan. El-yurtda mohir pichoqsoz usta, qo‘li engil shifokor sifatida ezgu iz qoldirib, 1947 yilda vafot etgan. Pichoqchilik hunarini san‘at darajasiga olib chiqqan iste’dodli hunarmand bo‘lgan. Pichoq ishqibozlari boshqa shahar, qishloqlardan atay Shahrixonga kelib, unga buyurtma berishgan.

Ubaydullo eshon jarroh tabib ham bo‘lgan. Xalq tabobatini tan olmagan, uni sanitariyaga zid, bid‘at, xurofat deb biluvchi sobiq sovet hokimiyati Ubaydullo eshon tabibni ta‘qib ostiga olgan. Ta‘qiblarga qaramasdan, shifo

¹ Бугунги Андижон. Тошкент - “Ўзбекистон”, 2006, 37-38 бетлар.

tilab kelgan bemorlarni davolayverгани uchun uni 1936 yilda «sovet kishilariga zarar etkazuvchi zararkunanda, xurofotchi tabib» sifatida qamoqqa olishgan. Yarim yil qamoqda yotganidan so‘ng undan-bundan buyon o‘zi ham, bola-chaqalari ham tabibchilik bilan shug‘ullanmasligi to‘g‘risida tilxat olishib so‘ng ozod qilishgan.

Ubaydullo eshonning pichoqchilik hunarini o‘g‘li Alixo‘ja Ubaydullaev davom ettirgan. U yasagan chiroyli bejirim pichoqlar jahonning ko‘pgina muzeylarida, jumladan, Moskvada, Leningrad (Sankt-Peterburg) shaharlaridagi mashhur muzeylarda hozir ham saqlanmoqda¹.

Usta Alixo‘jani yog‘dirgan ikkinchi jahon urushi jangohlarida ham bo‘lgan. Minglab o‘zbek yigitlari qatori u ham urushga majburan yuborildi. Avvaliga minomyotchi, keyin razvedkachi bo‘lib xizmat qildi. «Qizil yulduz», «Shuhrat» ordenlari, «Jasurligi uchun», «A‘lochi razvedkachi» va boshqa medallar, sakkiz marta oliy bosh qo‘mondon tashakkurnomasi bilan taqdirlangan. Usta Alitoy urushni 1945- yili Chexoslovakiyaning Praga shahrida yakunlab, g‘alaba bilan qaytgan. Urushdan kelgan kundan boshlab, to umrining oxirigacha (1979- yilda vafot etgan) pichoqchilik hunarini davom ettirdi.

Usta Alitoyning o‘g‘li Rahmatxo‘jani bugungi kunda nafaqat Shahrixon temirchi-pichoqchilarning sardori deyish mumkin! U Andijon viloyat «Hunarmand» uyushmasi ijodiy guruhining a‘zosi.

Rahmatxo‘ja Alixo‘jayev yasagan pichoqlar o‘tgan asrning 80-yillaridan beri viloyat, respublika, xalqaro miqiyosda o‘tkazilgan xalq amaliy ko‘rgazmalarida o‘zbek amaliy san’ati na‘munasi sifatida namoyish etilib kelinmoqda. Germaniya, AQSH, Hindiston, Angliya kabi o‘nlab mamlakatlarda tashkil etilgan ko‘rgazmalarda munosib o‘rinlarni egallagan.

¹ Ортикова М. Хунармандлар шахри. – Тошкент: Заркалам, 2006. -34 -б.

Xalqaro mukofot hisoblangan “ WQC Internftional Star Award” ga munosib topilgan¹.

Shahrixonning yana bir mashhur hunarmandlaridan biri pichoqchi, zargar, kandakor usta Sodiqjon Ne’matov hisoblanadi. Bu kishi 1996-yilda Respublika tadbirkorlarining “Tashabbus” ko’rik tanlovida qatnashib, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining mukofotiga sazovor bo’lgan. Bundan tashqari Bobur nomidagi xalqaro jamg’arma tomonidan xalqaro Bobur mukofotiga loyiq topilgan.

Shahrixon hunarmandlari ichida tunukasozlar ham ajralib turadi. Hozirda Shahrixonda yigirmaga yaqin tunukasoz ustalar faoliyat ko’rsatadi. Ularning deyarli barchasi deyarli bir suola vakillari bo’lib, bu shajara 1876-yilda tug’ilgan qo’qonlik usta Buvaliga borib taqaladi. U o’z davrida Qo’qon shahrining mashhur tunukasozlaridan bo’lgan. Taqdir taqazosi bilan Shahrixonga ko’chib kelgach, bu yerda ham o’z kasbini davom ettiradi. Shahrixonning eng mashhur tunukasoz ustalari Yo’ldoshboy Boboyev, Sayyidalixon, Akbarali, Madaminjon, Umarali, Tohirjon kabilar usta Buvalini ishini davom ettirmoqdalar.

Shahrixonda kosibchilik xonlar davridan beri rivojlanib kelayotgan o’z tarixi, ananalariga ega kasblardan hisoblanadi. Bu yerda bir nechta sulola vakillari mehnat qilib kelmoqdalar. Kelib chiqishi Qo’qonlik bo’lgan usta Ro’zimat sulolasi XIX asrning 70-yillaridan buyon faoliyat yuritadilar.

Xalqimizning eng qadimgi milliy hunarlaridan biri sanalgan chopondo’zlik ham yaxshi rivojlangan. Shahrixon tumanining Do’lan qishlog’ida yashab faoliyat yurituvchi Yorqinoy Sarimsoqova ushbu hunarning yetakchilaridan. U kishining avlodlari ham chopondo’z chevar bo’lgan. Ularning shajarasi XIX asr oxiri XX asr boshlarida yashagan (1790-yilda tug’ilgan) Shakarxon isimli chopondo’z chevarga borib

¹ Ортикова М. Кўрсатилган асар.

taqaladi. Yorqinoy Sarimsoqova ushbu insonning chevarasi hisoblanadi. Ularning kelib chiqishi asli qashqarlik bo'lib, 1827-1830- yillarda Qo'qon xoni Qashqarga yurish qiladi. Lekin tez orada u yerni tashlab ketishga majbur bo'ladi. Shunda Xitoylarning siquvidan bezor bo'lgan qashqarlik musulmonlardan 60-70 mingi Qo'qon lashkariga ergashib, Farg'ona vodiysiga kelgan. Keyinchalik ularning yarmidan ko'prog'I bu yerning sharoitiga moslash olmay o'z yurtlariga qaytib ketadilar. Qolganlari esa shu yerni vatan tutib yashab qoladilar. Ular Shahrixonning shimol tarafidan yer olib, shu yerda uy-joy qiladilar va qishloqga o'zlarining Qashqardagi ona qishloqlari Do'lan nomini qo'ygan. Shu tariqa bu hunar ham avloddan-avlodga o'tib, rivojlanib, takomillashib bormoqda.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Andijon viloyatiga tashrifi chog'ida shunday degan edi: «Azaldan tadbirkorlik fazilatlari bilan shuxrat topgan Andijon zaminida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi ham jadal rivojlanmoqda

Bu xaqda gapirganda, keyingi besh yil davomida viloyatda 10 mingdan ziyod yangi kichik biznes subekti tashkil etilib, ularning umumiy soni deyarli 2,5 barobar ko'payganini qayd qilish o'rinlidir. Eng muximi, mehnat bilan band aholining 84 foizi shu sohada faoliyat ko'rsatib, daromat topmoqda va uning asosiy qismini tadbirkor yoshlar tashkil etmoqda.

Bu ko'rsatkich yaxshi, albatta. Lekin biz kelgusi besh yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subektlari sonini 3 barobar ko'paytirish orqali aholi daromadlarini oshirishni muhim vazifa qilib qo'ymoqdamiz»¹.

Mustaqillik yillarida millatimizning tarixiy xotirasi to'laqlonli ravishda tiklanmoqda. Jahon tarixi qatorida vatanimiz o'lkamiz tarixini har tomonlama chuqur o'rganishga e'tibor qaratilmoqda. Zero men O'zbekiston fuqarosiman degan har bir inson yoshu-qarilari, barcha-barchamiz o'z tariximizni ipidan ignasigacha bilishga, anglashga, uni qadrlashga burchlimiz. Vatan ostonadan boshlanadi deganlaridek, o'lkamiz, tug'ilgan makonimiz tarixi ham vatan shu o'rinda jahon tarixining bir bo'lagi sanaladi.

Qayd etish lozimki, o'tgan yillar davomida respublikamizda milliy hunarmandchilikni rivojlantirish, xalq badiiy hunarmandchiligi va amaliy san'atining ko'p asrlik an'analarini saqlab qolish, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi shaxslarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarga qaramasdan, hunarmandchilik kichik biznes va yakka

¹ Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B. 13.

tadbirkorlik rivojlanishining kuchli, mustaqil va ommaviy yo'nalishiga aylana olmadi.

“Hunarmand” uyushmasi, berilgan imtiyozlar va qulayliklarga qaramasdan, o'z saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab ololmadi, uyushmaga a'zo bo'lganlar soni hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchilarning kam qismini tashkil etmoqda. Hunarmandchilik markazlarini sayyohlik salohiyatidan keng foydalangan holda tashkil etish ishlari holati qoniqarsizligicha qolmoqda, hunarmandlarga moliyaviy va xom ashyo resurslari ajratish, ular ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish, shu jumladan, eksport qilish uchun sharoit yaratishga yordam berish ishlari samaradorligi etarli darajada emas.

Shunga ko'ra, hunarmandchilikni rivojlantirish yo'lidagi mavjud muammo va to'siqlarnitizimli bartaraf etish, O'zbekiston xalqlarining boy madaniy me'rosi va tarixiy an'alarini to'liq saqlab qolish va yanada boyitish, hunarmandchilikni keng miqiyosda qo'llab-quvvatlash hamda hunarmandchilik bilan shug'ullanishga aholini, ayniqsa, yoshlar, ayollar va va kam ta'minlangan oilalarni jalb qilishga rag'batlantirish maqsadida 2017 yilning 17 noyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni qabul qilindi.¹

Farmon bilan respublikada milliy hunarmandchilikni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari etib hunarmandlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularga er maydonlari va binolar ajratish, muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulash, imtiyozli kreditlar berish, hunarmandchilik mahsulotlarini sotish va eksport qilish, shuningdek, respublikamizning tuman va shaharlarida hunarmandchilikni rivojlantirish markazlarini tashkil etish va “Usta – shogird” maktablari faoliyatini takomillashtirish ishlari belgilandi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni “Xunarmandchilikni yanada rivojlantirish va xunarmandlarni har tomonlama qo'llab – quvvatlash chora tadbirlari to'g'risida”. // Xalq so'zi. 2017 yil 21 no'yabr № 234 (6928) soni.

Farmonga binoan, “Hunarmand” uyushmasi saflariga hunarmandlarning keng ommasini qamrab olish, shuningdek, hunarmandchilikni kichik biznes va yakka tadbirkorlik rivojlanishining kuchli mustaqil yoʻnalishiga aylanishiga yoʻl bermayotgan uyushmaning cheklangan salohiyati bilan bogʻliq muammolarni hal qilish boʻyicha bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Hunarmandchilikni yanada rivojlantirish va hunarmandlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash chora-tadbirlari toʻgʻrisida, shuningdek, “Hunarmand” uyushmasi faoliyatini yanada takomillashtirish boʻyicha qabul qilingan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni va qarori hunarmandchilik yangi subʼektlarini tashkil etishni ragʻbatlantirish, ular faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish, hunarmandchilik va xalq amaliy sanʼati bilan shugʻullanuvchi fuqarolar va oilalarni har tomonlama qullab-quvvatlash, shu asosda yangi ish oʻrinlari tashkil etishni ragʻbatlantirish, oilalar turmush darajasi va sifatini, ayniqsa, qishloq va chekka tumanlarda oshirish ishlarini tashkillashtirishni sifat jihatidan yanada yuqori darajaga koʻtarish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shundan kelib chiqqan holda men ushbu tadqiqotim davomida Turkistondagi hunarmandchilik tarixida Shahrixon hunarmandchiligining bu shahar paydo boʻlgan davrdan to XXI asr boshlarigacha yani hozirgi kungach boʻlgan tarixini yoritishga harakat qildim.

Tadqiqotning birinchi bobida qadimgi davrdan Turkistondagi hunarmandchilik tarixi, yani hunarmandchilikning shakllanishi, arablar, moʻgʻullar va temuriylar, qoʻqon xonlarining hukmronligi davridagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni yoritishga urindim.

Ikkinchi bobda esa Chor Rossiyasining hukmronligi boshqaruv tizimi davrida Shahrixon shahrida hunarmandchilikni turlari va ushbu hunar turlarini rivojlanishiga taʼsir etgan omillarni ochib berishga harakat qildim.

Uchinchi bobda Shahrixon shahriga asos solinishi, Shahrixondagi tarixiy memoriy yodgorliklarni, ularni jamiyatimiz hayotida tutgan oʻrnini

bir necha arxiv va muzey materiallari, davriy matbuotda e'lon qilingan maqolalarga tayangan holda yoritishga harakat qildim.

So'ngi to'rtinchi bobda Shahrixonni Shahrixon nomi bilan dunyoga tanitgan hunarmandchilik va usta hunarmandlarning ish faoliyatini, pichoqchilik misolida - ustalarning sulolaviy tarixini, ularni jahon va respublikamiz miqiyosida tutgan o'rnini yoritib berdim.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, o'lkamiz tarixiga oid ko'plab manbalar arxeologik yodgorliklar qarida shuningdek, arxivlarimizda o'lkamiz tarixi, uning shakllanish jarayoni tarixchilar tomonidan o'rganilishini talab etmoqda. Shuningdek, ushbu mavzuga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar, ommabop kitoblar, arxiv hujjatlari to'plamlari, hatto qo'llanmalar haligacha e'lon qilingan emas. Bu hol esa o'z-o'zidan o'lka tarixini chuqurroq o'rganish, asarlar nashr qilinishini, xalqimiz qalbi va ongiga milliy vatanparvarlik tuyg'usini singdirishni taqazo etmoqda.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –Toshkent: O'zbekiston, 2017.
2. Каримов И.А. Ўзбекистон ХХИ аср бўсақасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
3. Каримов И.А. Баркамол авлод - Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. -Т.: Ўзбекистон, 1997.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони “Хунармандчиликни янада ривожлантириш ва хунармандларни ҳар томонлама қўллаб – қувватлаш чора тадбирлари тўғрисида”. // Халқ сўзи. 2017 йил 21 ноябрь № 234 (6928) сони.
5. Абдуллаев Т. XIX-XX асрларда Ўзбекистон кандакорлик санъати. . – Т:, 1994.
6. Алимов Х. Шахрихонликлар. Фарғона, 1996.
7. Булатов С. Ўзбек халқ амалий безак санъати. – Т:, 1991.
8. Булатов С. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т:, 1991.
9. Бобобеков Х. Қўқон тарихи. – Т.: “Фан”, 1996.
10. Бугунги Андижон. Тошкент - “Ўзбекистон”, 2006.
11. Зиёев Ҳ. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. -Т.: Шарқ, 1998.
12. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустақиллиги учун курашларнинг тарихи. -Т.: Шарқ, 2001.
13. Зиёев Ҳ. Ўзбекистон мустамлака ва зулм исканжасида (XIX аср иккинчи ярми – XX аср бошлари). Т.: Шарқ. 2006.
14. Ортикова М. Хунармандлар шаҳри. – Тошкент: Заркалам, 2006.

15. История Андижана в документах и материалах (1876-1917гг) Том второй. Составители: Шамсутдинов Р.Т., Хошимов С.А., Бозоров Қ. Ташкент, Sharq, 2012.
16. Мирзоолим Мушриф. Қўқон хонлиги тарихи. - Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
17. Мустабид тузумнинг Ўзбекистон миллий бойликларини талаш сиёсати: тарих шохидлиги ва сабоқлари. – Т.: “Шарқ”, 2001.
18. Набийев А. Тарихий ўлкашунослик.-: Ўқитувчи, 1996.
19. Прица М. «Тошкент ганчкорлиги». – Т.: 1960.
20. Шамсутдинов Р. ва бошқалар. Кўҳна ва навқирон Андижон.- Т.: Шарқ, 2010.
21. Шамсутдинов Р., Исмоқов А. Андижон тарихидан лавҳалар.- Т.: Шарқ, 2013.
22. Шамсутдинов Р., Мўминов Х. Ўзбекистон тарихи. – Т.: 2013.
23. Shamsutdinov R., Karimov Sh., Ubaydullayev O'. Vatan tarixi. 2-kitob.- Т.: Sharq, 2016.
24. Ўзбекистоннинг Янги тарихи. Биринчи китоб. Туркистон чор Россияси мустамлакачилиги даврида Т., «Шарқ» 2000.
25. Хасанов Р. Амалий безак санъати методикаси. – Т.: 2003.
26. Ergashev F. Turkistonda hunarmandchilik va pillachilik. – Jamiyat va boshqaruv jurnali, 2004-yil, 3-son.
27. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. 12-жилдлик. -Т.: ЎзМЭ, 2000 - 2005.
28. Қосимов Й. Қўқон хонлиги тарихи очерклари. – Тошкент-Наманган: 1994.
29. Буюк ипак йўли ва Фарғона водийси” мавзусидаги республика илмий амалий анжуман материаллари.– Т.: Шарқ, 2004.

Gazeta va vaqtli matbuot materiallari.

1. “Andijonnoma” gazetasi. 2001-yil, 31-avgust, 65-son; 2001-yil, 19-oktabr, 92-son; 2011-yil, 2-oktabr, 81-son.
2. “Yangi hayot” gazetasi. 2009-yil, 22-yanvar, 4-son; 2009-yil, 12-mart 12-son.
3. Ziyonet.uz.
4. Ziyouz.com.

Muzey fondlari

1. Shahrixon muzeyi fondi. Yordamchi ilmiy bisotlari.